

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

Toshkent Davlat agrar universiteti Nukus filiali

**BAKALAVRIAT 5620600-QISHLOQ XO'JALIK MENEJMENTI VA
ZOOTEXNIYA TA'LIM YONALISHI
IV-KURS TALABASI**

BEKJANOVA AYZADA DAWLETBAEVNANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “ Maxalliy qarako'l quylarida qarakuлча olish
texnologiyasini urganish”

Rahbar:
**Qishloq xujalik menejmenti
va zootexniya fakulteti
dekani v.f.n.**

R.Jumashov

Bitiruv malakaviy ishi ko'rib chiqildi va himoya qilichga ruxsat etildi

« Zootexniya» kafedrasi boshlig'i:

_____ R.Turganbaev

2016y_____

«Qishloq xujalik menejmenti

va zootexniya» kafedrasi dekani:

_____R.Jumashev

2016y_____

Nukus 2016 yil

MUNDARIJA

Kirish	3
I.Bob	
1.0 Adabiyotlar sharxi	6
. II.Bob	
2.0 Xo'jalikning tarixi va tavsifi	14
2.1 Tadqiqodning maqsadi, vazifalari va obyektlari.....	15
2.2 Tadqiqot uslublari	15
III.Bob	17
3.1 Bo'rdoqiga boqilgan qo'ylarni semizlik darajasini va tirik vaznining o'zgarishi.	17
3.2 Ratsion to'yimligining qo'ylar go'sht maxsuldorligiga tasiri.	20
3.3 Embrionning og'irligi.	27
3.4 Teri sath kengligi.....	31
3.5 Teri sifati	31
3.5.1 Jun qoplaminig ipaksimonligi.	36
3.5.2 Jun qoplaminig quyugligi.....	37
3.5.3 Jun qoplaminig yaltiraqligi.....	38
3.6 Xar xil muddatda olingan terilarning tiplari.....	44
3.7 Terilarning navlari.....	51
3.8 Ishning iqtisodiy samaradorligi.....	53
IV.Bob	
4.0 Hayot faoliyati va texnika xavfsizligi.....	55
4.1 Xulosa va takliflar.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	60

KIRISH

Davlatimiz raxbari tomonidan ilgari surilgan, mamlakatimizda demokratik isloxlarni yanada chuqirlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyadagi qishloq xo'jaligiga doir qonun ijodkorligini kuchaytirish yuzasidan belgilangan aniq reja tadbirlar ijrosining ta'minlanishiga aloxida etibab berilmoqda. Prezidentimizning 2012 yil 22 – oktyabrda qabul qilingan “O'zbekiston fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni hamda 2012-2016 yillarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni yanada modernisatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jixozlash dasturi to'g'risida”gi qarori asosida soxaga oid qonunchilik yanada chuqurlashtirildi. Bu borada qomita tomonidan “Fermer xo'jaligi to'g'risida” gi, “Dexqon xo'jaligi to'g'risida” gi, “O'simliklar karantini to'g'risida” gi, “Seleksiya to'g'risida” gi, “O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Veterinariya to'g'risida” gi (yangi taxrirda), “Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirishni jadallashtirishni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” gi, “Asalarichilik to'g'risida” gi, “Qishlox xo'jaligida kooperosiya to'g'risida” gi qonun loyixalari ustida qator ishlar amalga oshirildi. Qonun tashabbuskorligi asosida “Fermer xo'jaligi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish xaqida” gi qonun loyixasini ishlab chiqarish bo'yicha aniq maqsadli chora-tadbirlar belgilandi. “O'zbekiston Respublikasining aggar qonunchili” gi nomli kitob va ko'mitaning 2010-2012 yillardagi asosiy faoliyat yo'nalishlari yakunlari, hamda 2013 yilga rejalashtirilgan ustuvor fazivalari kiritilgan ikki qisimdan iborat maxsus Axborotnoma taqdimoti ham o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 – sentyabrda qabul qilingan “Veterinariya to'g'risida” gi, 1995 yil 21 – dekabrda qabul qilingan “Nasilchilik to'g'risida” gi qonunlari chorvachilikni rivojlantirishda muxim axamyatga ega bo'ldi. Respublika Vazirlar Maxkamasining 1993 yil 15–martdagi “Respublika

Chorvachiligi iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 1994 yil 23 – fevraldagi “Chorvachilikda iqtisodiy isloxlarni takomillashtirish hamda dexqon, fermer xo'jaliklari va xususiyashtirilgan fermalar manfaatlarini ximoya qilish choralari to'g'risida” gi, 2006-yil 23-martdagi shaxsiy yordamchi , dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi qarorlari esa soxani taraqqiy ettirish jarayonida asosiy dastur bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 – martdagi “Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida” gi, PQ-308 qarori ikkinchi bandiga asosan ma'qullangan “2006-2010 yillar davrida shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturi ” da esa shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilangan:

Qishloq xo'jaligi taraqqiyotining bozor iqtisodiyoti bosqichida imkoni boricha qisqa muddatlarda yem – xashak bazasini vujudga keltirishi, uning suturukturasini takomillashtirish vazifasi birinchi o'rinda qo'yilmoqda, bu esa mamlakatning butin agrosanoat kompleksini mustaxkamlashni taqozo yetadi.

Qorako'lchilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib mamlakatimizda korako'lchilikni rivojlantirishga katta axamiyat beriladi.

Tarmoqda mustahkam moddiy texnika bazasini vujudga keltirish, ishlab – chiqarish binolari, cho'ponlar, mutaxassislar va xo'jaliklarning bashqa ishchilar uchun turar joylar va madaniy, maishiy obyektlar qurilishini keng avj oldirish zarur.

Bu vazifalarni bajarish uchun tarmoqni intensivlashtirish ishlab chiqarishni chuqur ixtisoslashtirish va konsentrasiyalash, qo'ylarni boqish va asrashning yangi texnologiyasini joriy etish zarur. Qorako'l qo'ylarni atrovi o'ralgan yaylovlarda asrash, yem – xashak tayyorlash hamda ularning to'yimligini va xushbo'yiligini oshirish uchun qayta ishlash katta istiqbollar ochib beradi.

Qorako'l qo'ylarni boqish va asrashda har qanday vaziyatda ham tarmoqning barqaror rivojlantirishni ta'minlaydigan sharoitvujudga keltirish kerak.

Qorako'lchilik – O'rta Osiyo mintaqasida chorvachilikning eng qadimiy tarmoqlaridan biri xisoblanadi. O'zbekiston qorako'lchilik maxsulotlarini yetishtirish bo'yicha jaxondagi oldingi o'rinlardan birini egallaydi.

Qorako'l qo'ylar mamlakatimiz xududida qadim qadimdan boqib kelinmoqda.

O'zbek qorako'li azaldan eksport tovari hisoblanib mamlakat xazinasiga valyuta keltiradi, lekin katta imkoniyatlarga ega bu soxa keyingi yillarda oqsay boshladi. Ya'ni qorako'lchilik xo'jaliklari moliyaviy jixatdan o'tirib qoldilar. Buning oqibatida keyingi yillarda qorako'l qo'ylarining bosh soni kamayishi kuzatilmoqda.

Qishloq xo'jaligida eng dolzarb masala yetishtirilgan maxsulotni xom – ashyo sifatida emas, balki tayyor maxsulot sifatida sotish bo'lib hisoblanmoqda. Shuning uchun bu maxsulotlarni qayta ishlovchi va tayyor maxsulotga aylantiruvchi kichik korxonalar va sexlar qurish va ishlatishimiz zarur.

Qorako'lchilik xo'jaliklari 1998 yildan boshlab qishloq xo'jalik shirkati (kooperativ) ga o'tganligi bilan soxaga ancha o'zgarishlar bo'lmoqda chunki yakka boshliq direktor o'rniga boshqaruv uning a'zolari boshqaruv raisi bo'ldi va taftish xayati saylandi. Cho'ponlar xam ijara pudrati asosida, paychilikka asoslanib ishlamoqda. Naslchilik ishiga yanada katta e'tibor berila boshladi. Lekin 1998 yildan boshlab qorako'l terining narxi pasaydi chunki xaridor kamaydi, katta qo'y terisiga ham xaridor kam. Ammo terining xaridorgir rangi, tusi, rang – barangini ishlab chiqarilsa, xamda guli, o'lchami, jun uzunligi jixatdan xaridorgir bo'lganini yetishtirish maqsadga muofiq bo'ladi.

I. BOB

1.0 ADABIYOTLAR SHARXI

Qorako'l qo'ylari go'sht, jun va qo'zidan tashqari qimmatli qorako'l teri beradigan, dunyo bo'yicha tan olingan yagona qo'y zotidir. Qorako'l qo'ylari xam maxsuldor dasht, cho'l yaylovlarida, boshqa xayvonlarni boqib qo'paytirish uchun ancha qiyin xisoblanadigan sharoitlarda boqishga yaxshi moslashgan.

Qorako'l qo'ylari boshqa barcha zotga mansub madaniy qo'ylardan terisining rang – barangligi bilan farq qiladi.

Mustaxkam yem – xashak bazasini barpo etish mexanizasiyalashtirilgan komplekslar tashkil qilishning xal qiluvchi shartlaridan biridir.

Mexanizasiyalashtirilgan komplekslardagi yem – xashak ishlab – chiqarish tajribasi shuni ko'rsatadiki, qo'ylarni atrofi o'ralgan o't ekilgan yaylovlarda asrashni yo'lga qo'ymay turib, sanoatlashtirilgan qo'ychilik komplekslari oldida turgan vazifalarni xal qilib bo'lmaydi.

M.D.Zokirov va boshqalar (1999 y) malumotiga ko'ra barqaror yem – xashak bazasini barpo etish uchun yovoyi oziqabob o'simliklar ekish va orasiga ekish yo'li bilan tabiiy yaylovlarni yaxshilashdan tashqari oziqabob ekinlar maydonini kengaytirish, ular xosildorligini oshirishni xam talab etadi. Ko'p yillik dukkakli o'tlar, beda, dukkakdosh va boshqadosh o'tlar aralashmasi ekilgan maydonlarni kengaytirish, sug'oriladigan yerlarda takroriy ekin maydonlarini kengaytirish, lalmi yerlarga maxsar va boshqa ekinlar ekish birinchi navbatdagi rezerv bo'lib qolishi kerak.

Qorako'l tayorlash texnologiyasida bo'g'oz sovliqlar og'ilda boqilganda ularni bo'g'ozlikning 131 – 135 kunligida so'yib olish tavsiya etilgan V.G.Shimanov va boshqalar 1989 y ilmiy ishlari bo'rdoqichilik komplekslarida qorako'lcha ishlab – chiqarish jaraynida donador yetishtirilgan oziqalarning qo'ylarning teri maxsuldorligiga bag'ishlangan edi. Natijada donadorlashtirilgan oziqalar qo'ylarning pratein va boshqa to'yimli maddalarga bo'lgan talabini qondirib, embrion terisidagi muarisimon rasmi tezda shakillanishiga olib boradi.

Buning natijasida qo'ylarning so'yish muddatlari 128 – 129 kunligida tavsiya etilgan edi. Bu muddatda so'yilgan qo'ylarning qorako'lcha terilar chiqimi 72,7 – 78,6 foizni tashkil etadi. Qorako'l – qorako'lcha terilar esa 14,3 – 18,2 foiz va taqir terilar 7,1 – 9,1 foizni tashkil qiladi.

S.A.Asomov (1991 y) malumotlari shuni ko'rsatadiki bo'rdoqiga boqilgan qo'ylardan olingan qorako'lcha terilarning asosiy sifat Ko'rsatkichlariga ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Shunday kilib sanoat asosida boqilgan qorako'l qo'ylarining satx o'lchami 13 – 30 foizga ko'p, yani 160 dan 236 sm² gacha og'irligi 20 – 55 foiz (farqi 40 – 72 gramm) va teri kalinligi 13 – 27 foizga bo'rdoqiga boqilmagan qo'ylardan olingan terilarga nisbatan yo'qori bo'lganligi aniq bo'ldi.

Qorako'lchilikda jun-tola uzunligi ko'pgina omillarga bog'liq, asosan sharoitga qaraydi. Bizda esa yaylovlarda xosildorlik juda o'zgaruvchan (S.Yu.Yuusupov va R.X. Ro'zimurodov 1995 y).

Respublikamizda bunday maxsus bo'rdoqichilik uyushmalari jami 12 ta (Abay, Zarafshon, Koson, Konimex va h.k.).

Qorako'lcha guruxidagi terilar meyordagi qorako'lga nisbatan ancha kalta, yaltiroq jun tolasiga ega bo'lib chiroyli muari rasimni, yupqa elastik va nisbatan mustaxkam chidamli teri mag'ziga ega. Bu xususiyatlar qorako'lchaga yuqori tavarlik qiymatini beradi. Hozir xam, ilgari xam jahon bozorida xam qorako'lcha meyordagi qorako'ldan 50-70 foiz yuqori narxda yuritilgan. K.Ylemesov (2001 y) Leningrad auksionida qorako'l-qorako'lcha va qorako'lcha terilar meyordagi qorako'ldan ikki barobar qimmat sotilganini yozadi.

A.Ombayev (2002 y) Leningrad auksionida qorako'lcha 76, qorako'l-qorako'lcha 11, jaket I navli meyordagi qorako'l teri 8-9 dollordan sotilganini yozadi.

S.A.Asomov va boshqalar (1988 y) xalqaro Leningrad auksionida xam qorako'lchaga talab yuqori bo'lganini yozali.

Chet el olimlaridan X.E.Matter (1987 y) 1449 yildagi Vindxukdagi auksionda qofurg'asimon-yassi- qorako'l-qorako'lchaga 89.9 foiz, muari tipli

qorako'lchaga 81.0 foiz narx meyordagi qalamigulli yaxshi teridan yuqori bo'lganligini qayt etadi.

V.G.Shimanov va boshqalar (1989 y) yozishicha 133-136 kunligida suyish to'la o'zini oqlaydigan usuldir.

Bu olimlarning yozishicha yaroqsizga chiqarilgan ona qo'ylardan 55-60 foizini qorako'lcha olish uchun qochirish mumkin. Xar 100 bosh qochgan qo'ydan 93-95 tagacha teri olishga erishiladi, qo'ylarning 9-10 klagrammgacha go'shti ham ortadi 90-95 foiz qorako'l-qorako'lcha shundan 50-70 foiz toza qorako'lcha bo'ladi.

S.A.Asomov va boshqalar (1988 y) ning yozishicha qorako'lcha olish faqat bizda emas qorako'lcha ko'p bo'lgan Avg'onistonda xam ishlab chiqariladi. Lekin ular siniy qochirilmasdan tabiiy qochirilib, qorako'lcha bo'lganini qo'y qornidagi bolasini ushlab paypaslab ko'rib aniqlaydi, agar xomilaning tuyug'i qatqlashgan bo'lsa qorako'lchaga so'yiladi.

Qorako'l zotining markaziy kengashi 1964 yil 10 – 15 yanvarda Leningrad hozirgi Snakt – Piterburkda yig'ilish o'tkazib jaket, kirpuk, yassi yupqa I va qovurg'asimon yupqa I terilarni ko'plab ishlab chiqdilar, nasilchilik ishidagi asosiy – bosh vazifa deb belgiladi.

A.Ombayev va boshqalar (2001 y) Qozog'istonda qorako'lcha olish mumkin deb yozganlar olingan qorako'lcha va merincha terilarsatxi 130 kunlikdan boshlab xar kuni oshib borishini qayd etganlar.

K.Ye.Yelemesov va boshqalar (1989 y) qorako'lchani maxsus seleksiya yo'li bilan meyoriy – tirik tug'ilgan qo'zilardan xam olish mumkin deb yozadilar.

K.Yelemesov (2000) ma'lumotiga ko'ra, terining og'irligi uning barra tipiga bog'liqdir. Eng og'ir terilar, o'sinqiragan tiplilarga xosdir va eng yengil terilar.

Professor I.N. Diyachkov (1980) boshchiligida bir guruh olimlar qorako'l qo'yining gul shakllariga asoslanib seleksiya – nasilchilik nazariyasini ilgari surib 1961 yil qorako'lchilik amaliyotiga keng qo'llash uchun tavsiya bergan edi.

Akademik V.M. Yudin (1964) gullarning 15 – 20 kun davomida saqlanishiga e'tibor berib naslli qo'chqorlarni takroriy 15 – 20 kunligida baxolashni tavsiya etgan edi.

I. N. Diyachkov (1980) qora rangli urg'ochi qorako'l qo'zilarni 12 – 15 kunligida takroriy ko'rib, gullar yaxshi saqlanganliklarini aloxida guruhga ajratib super – elita suruvi deb nomlashni ta'vsiya ekilgan edi. Qo'zilarda jun – tola uzunligi qumli cho'l va tog' oldi mintaqalarida xar xilligi aniqlangan va bu belgining yuqori darajada o'zgaruvchanligini tog' oldi va yarim cho'l xududlarida qayd qilingan. Gullarning saqlanishi va u bilan bog'liq bo'lgan seleksion belgilarining o'zgaruvchanlik darajasi o'rganilib keskin buzilish davri 23 – 30 kunligida ro'y berishi aniqlandi. Bu esa gullari yaxshi saqlanadigan guruhlar yaratilish imkoniyatlari boriligidan dalolat beradi. K.E. Elmesov (1975). Gullarning buzilish jarayoni ularning jun tolalarining o'zgarishi bilan bo'liq bo'lib, gullarning qimmatli, mustahkam, uzun gullar salmog'ini kamayishi va pasayishi kuzatilgan (T.U. Umirzoqov 2000).

A. Gaziev (2002) qo'zilarda gul ko'rsatkichlarining saqlanish darajasi qovurg'asimon va yassi tipli qo'ylarni bir xil juftlash sharoitida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Gul qoplami saqlanish darajasi «jaket x jaket juftlash variantida» 10 – 15 kunlikda 20 – 30 kunlikgacha 76.1 % dan 44,3 % gacha pasaysa, bu ko'rsatkichlar «qovurg'asimon x qovurg'asimon» variantida 89,2 va 62,4 % ni, «yassi x yassi» variantida 84,4 va 58,3 % ni tashkil etishi kuzatildi. Oxirgi ikki juftlash variantida gullar uzunligi va mustahkamligi kam o'zgaradi. Ushbu yondoshishda jun tola qoplami sifat ko'rsatkichlarda xam sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaydi. Olingan natijalar bozor talabidagi (jaket qalin, qovurg'asimon va yassi qalin) keng satxli qorako'l terilari yetishtirishini davrlarga qarab 25 – 30 % ko'paytirish imkonini beradi. Barcha belgilar bo'yicha qo'zilarni tanlashda qumli vashuvoqli – efemirli cho'l sharoitlari uchun 10 – 15 kunlik yosh davrlari xisoblanadi. Qimmatli gullarva jun tola qoplami pigmentatsiyasi bo'yicha qumli va shuvoqli – efemirli cho'l sharoitida qo'zilarni 23 – 30 kunlik yosh davrida xam samarali tanlash mumkin (A. Gaziev 2002 yil).

I.N. Diyachkov (1980), M.A. Koshevoy (1987), R. Valiev (1996) va qator boshqa mualliflar maqollarida o'rgatilgan. Qorako'l qo'ylarni seleksion pat sialidan to'laroq foydalanish rezervlar mavjud. Ulardan seleksion jarayoniga ijodiy yondoshish yo'li bilan qo'ylar maxsuldorligini ancha oshirish mumkin. Shunday yo'llardan biri qorako'l qo'zilarni gullar ko'rsatkichlarini saqlash va o'zgarish darajalarini o'rganish, ularni nasilli xususyatlarini keying o'sish jarayonida yaxshi saqlanganlarini tanlash ijobiy natija berishi mumkin. Aslzotli qora qorako'l terisining davlat standarti (O'zRST 641 – 95) va qorako'lchilikda nasilchilik ishlarini yurgizish qo'llanmasida (2000) qora rangli qorako'l qo'zilarining qalam gullari eniga qarab mayda, 4 km dan ortiq 8 mm gacha, o'rta va eni 8 mm dan ortiq bo'lganlari katta (keng) qalam gullar gruxiga kiritiladi.

A. Giyosov (2001) tomonidan tavsiya qilingan qora – qorako'l terilarini eksportga jo'natish oldidan navlarga ajratish qo'llanmasida qalam gullar eniga qarab yanada bir necha kichikroq guruhlariga bo'linadi, ularning xar bir guruhga tabaqalashtirilgan baxo berilgan.

I.N. Diyachkov, R.T. Pisimennayler (1963) xar xil turdagi qalam gullarning eni turlicha bo'lishini qayd qilib o'tganlar. Xaddan tashqari keng qalamgullar yassi (14 mmgacha) va qovurg'asimon (12 mmgacha) qalam gullarga xos ekanligi ko'rsatilgan. Qo'zilarining va qorako'l terilarning gul o'lchami, shuningdek qalam gullarning kengligi, avvalo, bug'oz sovliqlarning bug'ozlik davrida oziqlantirish darajasiga qarab turlicha bo'ladi.

I.N. Diyachkov (1980) yozishicha, qo'zilatish kompaniyasining boshidan oxiriga qarab katta gullik qo'zilarining soni qo'payip, mayda va o'rta guli qo'zilarining salmog'I kamayib boradi.

M.A. Koshevoy va boshqalarning (1983) ma'lumotiga ko'ra, oziqa – yaylov sharoiti yaxshi kelgan yillarda, oziqa – yaylov sharoiti noqulay kelgan yillarga nisbatan mayda va o'rta guli qo'zilar kamayib katta guli qo'zilarining soni ko'payadi. Bunday ma'lumotlar V. M. Yudin (tatqiqotlarida) xam qayd etilgan.

P. Aralov, V.Petrovlar (1975) qo'zilarining gul o'lchami, ularning ona qornida davrining uzoqligi bilan xam aloqadorligini uktiradilar. Bu davrining uzayishi katta gulli qo'zilar sonining ko'payishiga olib keladi

M. I. Kotovlarning (1980) ma'lumotiga ko'ra, sovliqlarning beshinchi tugishiga qadar katta gullilar soni, xar tug'ishda ko'payib boradi.Oltinchi tug'imda qaytadan katta gullilar kamayib, mayda gullilar ko'payadi.

A.Yunisov (2001) ning yozishicha, qo'zilarining gul o'lchami ota – onasining konstitutsiyasi tiplari bilan aloqadordir.Qupol konstitutsiyali qo'ylardan olingan qo'zilar orasida katta gullilar, nozik konstitutsiyali qo'ylarning avlodlari orasida mayda gullilar ko'p uchraydi.Avtorning. Qayd qilishicha, nozik konstitutsiyali qo'ylarning ko'pchiligi (77,7 % gacha) mayda guli, qo'pol kostitutsiyali qo'zilar katta guli (66,3 % gacha) bo'ladi. Bunday ma'lumotlar A.G'oziyv (2002) tatqiqotlarida xam ko'rsatib o'tilgan.

M.A.Shirinski (1992) ning tatqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qo'zilarining gul o'lchamlari ota – onasining gul o'lchami bilan bog'langandir.Mayda guli sovliqlarni mayda guli qo'chqor bilan juftlashtirilganda, eng ko'p mayda guli katta quli qo'ylardan esa eng ko'p katta guli qo'zilar olinadi.

S.Mamatkazin (1963 - 1964) ta'kidlashicha, qo'ylarning gul o'lchami bilan ularning tirik vazni o'rtasida ijobiy boshlanish mavjud bo'lib qo'zilarining gullar qancha yirik bo'lsa, ularning tirik vazni xam shuncha yuqori bo'ladi. Turlicha gul o'lchamiga ega bo'lgan sovliqlardan olingan qo'zilar tirik vazni, qalamgullarning eni va uzunligi, tolalarning uzunligi bo'yicha bir – biridan keskin farq qiladi.

B.N.Vasin va boshqalarning (1971) ma'lumoti bo'yicha qo'zilarining gullari yiriklashgan sari ularning tirik vazni va tana o'lchovlarining xajmi xam ortib boradi.

M.A.Shirinskiyning (1990) xulosasi bo'yicha, gul turlari bilan bir qatorda qo'zilarining muxim seleksion belgilaridan xisoblanadi va undan oqilona foydalanish qorako'l zotini yanada takomillashtirish va uning maxsulot sifatini oshirish imkonini beradi. Biologiya fanining rivojlanishi va undagi qonunyatlarning ochilishi xayvonlarni ilmiy asosda yo'lga qo'yilganligi

maxsuldorligini yaxshilashga imkon yaratib berdi. Bu esa o'z navbatda xar xil xayvonlar guruhini, tipini va xayvon zotlarini yaratishga imkon yaratib beradi. Ch.Darvin o'zining geneal asarida tashqi muxit omillari ta'mirga katta axamyat berib, shunday deb yozgan: «Yashash sharoitida yuz beradigan xar qanday, xatt xaddan tashqari yengil o'zgarishlar xam ko'pincha o'zgaruvchanlikni keltirib chiqarish uchun yetarli bo'ladi».

A.Baltoev (2003) ko'rsatishicha, oziqlantirish xayvonlarning tana tuzilishi va maxsuldorligiga katta ta'siri borligini, uning kuzatishicha, yaxshi oziqa bilan oziqlantirgan qo'ylardan yomon oziqlantirilgan qo'ylari nisbatan tug'ilgan qo'zilarining tirik vazni 1,2 – 1,6 kg ko'p bo'lganlar.

Professor M.J.Zokirov (1999) o'zining ilmiy ishlari xulosasida shuni ma'lum qiladi, yosh xayvonlarni to'yimli ozuqalar bilan boqqanda ularni o'sishi va rivojlanishi jadallashadi, tirik o'g'irligi oshadi, tana tuzilishi yaxshilanadi. Aksincha, kam ozuqalar bilan yosh xayvonlarni oziqlantirilsa ularning o'sishi toxtaydi, qo'shimcha o'sish og'irligi pasayadi.

S.YU.Yusupov (2000), A.Axmedov (2001) va boshqa olimlarning keying tatqiqotlari shuni ko'rsatadiki, xayvonlarni boqib va asrash sharoitlari, ayniqsa, bug'ozlik davrining ikkinchi yarmidagi shroitlar xaqiqatda xam qorako'l terilarning muayyan darajada ta'sir ko'rsatar ekan.

A.Ombayev. (2001 y) yozishicha qorako'l qo'zilarining embrional rivojlanishi rangiga bog'liq emas lekin barra tipiga aloqador, bu esa o'z navbatida qalam gul uzunligiga albatta tasir ko'rsatadi. Chunki jun uzayishi bilan qalam gul uzunligi qisqara boradi.

Urug'langan tuxum xujayrada qon aylanishi boshlanguncha qanday muxum biologik o'zgarishlar ro'y berishini aniq bilish juda katta axamiyatga ega. Tuxum xujayira bu davrda ona organizmidagi moddalar almashinuvi bilan xam aloqador bo'ladi. 12 – 15 kun o'tgach, embrionda qon aylanishi prosesi boshlanishi tufayli ona organizmi bilan biologik aloqa kuchayadi va qo'zi to'g'ilguncha davom etadi. Eng birinchi biologik davr embrion qavatlarining paydo bolishi bilan

xarakterlanadi. Xosil bo'lgan endoderma, ektoderma va mezoderma qavatlari organlarining tuzilishi uchun material beradi. Ikkinchi davrda bachadon devorlari bilan embriionning aloqasi boshlanadi. Bunda onaning qon aylanish sistemasi tutashib ketadi. Embrion ona organizmida rivojlanish davrida tanasi o'sadi va tanasi qo'zi shaklini oladi. Bu xil o'zgarishlar asosan ona organizmiga bog'liq bo'ladi, ona sog'lom va semiz bo'lsa, qo'zi shunchalik meyorida rivojlanadi.

Embrion 1 oylik davrida tanasining tashqi tuzilishi ancha o'zgaradi va ichki organlari paydo bo'ladi. Dastlab qon va qon tomirlar hamda yurak shakillana boshlaydi. Shu davr ichida embriionning boshi tanasi, dumi va oyoqlari paydo bo'ladi.

Qalqonsimon bez va gipofiz bezi o'z vazifasini bajarishga kirishadi.

Birinchi oy oxirida o'rta quloq bo'shlig'i ko'rinadi. Mezoderma sigmentlaridan muskullar xosil bo'lganligi tufayli tananing sigmentlanishi tugallanadi.

Qo'zilar 2 oylik bo'lganida yaxshi rivojlanadi va shu oyning oxirlarida oshqozon aparati ishlay boshlaydi. Shirdonla va ichaklarda ichki sekresiya bezlari shakillanadi. Jigar o't ishlab chiqara boshlaydi. Ikkinchi oyda jinsning tashqi belgilari ifodalanadi. Lablari va qovoqlari atrofida sezgi junlari ko'rinadi. Ikkinchi oy oxirida peshonasida va boshining tepa suyagi ustida junlar ko'payadi. 60 kunlik bo'lganda terining deyarli xamma joyida qiltiq junlarning o'rinlari paydo bo'ladi.

74 kunlik bo'lganda lablari, ko'zlari, burun va tuyoqlari atrofidagi teri qoraya boshlaydi. Bo'shroq pigmentlanish yuzlarida peshona va oyoqlarida ko'rinadi.

84 kunlik bo'lganda jun dog'lari paydo bo'lishini tananing hamma joyida ko'rish mumkin.

Uchinchi oyi boshi, bo'yni va tananing yuqorida aytilgan joylarida oraliq va tivit junlari o'rinlari ko'rinadi.

To'rtinchi oy boshida qo'zining terisi ancha qalinlashadi. So'ngi bosqichlarda junlar teri yuzasida ko'rinadi. Junlar eng avvalo bo'ynida oyoqlarida

va dumida ko'rinadi. 115-120 kunlik bo'lganda ona qornidagi qo'zi tanasining hamma joyi tekis, qisqa va silliq jun bilan qaplangan bo'ladi.

Ona qornida yashash davrining ikkinchi yarmidan ovqat xazm qilish prosesi boshlanadi. Buyraklar o'z faoliyatini boshlaydi. Qalqonsimon bez suyuqlik ishlab chiqaradi.

Junlar o'sib chiqishi bilan ma'mum tomonga yo'naladi, bu junlar birinchi oqim deb ataladi.

Qorako'l ko'zisi ustidagi junlar o'sib taraqqiy etishi va uning o'ziga xos xususiyatlari tuvayli xosil bo'lgan boshqacha yo'nalishga ikkinchi oqim deb ataladi.

Ikkinchi oqim o'sib yetilishi bilan qorako'l terisi ustida meyorida gullar shakillana boshlaydi.

Chala tug'ulgan qo'zilardan shilib olingan terilar ichida taqirlari xam uchraydi. Taqir terilar gulsizdir, biroq taqir terilarning yaxshi xillarida ikkinchi oqim uchraydi.

Ikkinchi oqim teri ustiga qancha ko'p va yaxshi tarqalgan bo'lsa shuncha yuqori sifatli qorako'lcha terilar hosil bo'ladi. Qorako'lcha teri embrion 130-140 kunlik bo'lganda shakillanadi.

145 kunligida onadan chala tug'ilgan qo'zilardan qorako'l- qorako'lcha olinadi. 145-155 kunligida tug'ilgan qo'zilardan odatda meyoriy qorako'l terilar olinadi. Meyoriy qorako'l terilari to'liq ifodalangan gul turlari bilan qoplangan.

II.BOB

2.0 XO'JALIKNING TARIXI VA TAVSIFI

“Ustyurt ” nomli nasilchilik qorako'lchilik shirkat xo'jaliklari Qong'irot tumaniga qarashli bo'lgan xo'jalikdir.

Xojslik 1964-yilda tashkil etilgan. Umumiy yer maydoni 179 040 ga , chundan ekiladigon maydon 923 ga , yaylovlar 93 959 ga .

Ustyurt shikat xojaligida qoylarning bosh soni jami 23 940 bosh, chundan ona sovliqlar 8 408 bosh , shu kungacha olingan qo'zilar 5 890 bosh , teriga soyilgan qo'zilar 804 dona .Toyyarlangan em-hashaklar 4 050 t.

Texnikalar soni 5 dona.

III. TADQIQODNING MAQSADI, VAZIFALARI VA OBYEKTULARI

Bizning maqsadimiz Abay qo'ylarini bo'rdoqiga boqish va qorako'lcha ishlab chiqarish shirkat xo'jaligi sharoitida xar-xil kunlik (yoshdagi) qorako'lcha tipidagi terilarning ayrim tovar xususiyatlarini o'rganish edi. Buning uchun quyidagilarni aniqlashni vazifa qilib qo'ydik:

1. Bo'rdoqiga boqilgan qo'ylarni semizlik darajasini va tirik vaznining o'zgarishini;
2. Embriinning og'irligini;
3. Teri satx kengligini;
4. Jun qoplaminig ipaksimonligini;
5. Jun qoplaminig yaltiroqligini;
6. Jun qoplaminig quyuqligini;
7. Xar xil muddatda olingan terilarni tiplari;
8. Teri navlari;
9. Tajribaning iqtisodiy samaradorligi;
10. Xulosa va takliflar.

2.1 TADQIQOT USLUBLARI

Ish 2015-2016 yili Ustyurt qo'ylarni bo'rdoqiga boqish va qorako'lcha ishlab chiqarish shirkat xo'jaligida olib borildi va bajarildi.

Buning uchun biz qochirish mavsumida sovliqlardan 5 gurux tashkil qilib ularni suniy ravishda urug'lantirildi. Urug'langan sovliqlar qulog'iga xar-xil muddatlarda so'yish uchun xar xil rangli latta bog'ladik. Sovliqlar bo'g'ozlik davrining 129, 130, 131, 132, 133 kunligida so'yiladi.

Bo'rdoqiga boqilgan qo'ylarni semizlik darajasini va tirik vaznining o'zgaruvchanligini B.I.Ch.I uslubiga asosan o'rganildi (M.F.Tommi, 1956; S.V.Buylov va boshqalar 1970).

- Bo'rdoqiga boqish davrida sovliqlarning tirik vaznini o'rganishda, bo'rdoqiga boqishdan oldin va bo'rdoqiga boqishning oxirida 200 kilogrammlik katta tarozida tortish yo'li bilan o'rganildi (200 grammgacha aniqlikda). Semizlik darajasini qo'l bilan ushlab ko'rish yo'li bilan aniqlaniladi.

- Embrionning og'irligini tarozida tortish yo'li bilan o'rganildi. Embrion og'irligi prujinali tarozida (0.1 gramm aniqlikgachi) o'lchaniladi.

- Embrionlardan yangi shilib olingan terilarning og'irligini prujinali tarozida (0.1 gramm aniqlikgachi) o'lchash yo'li bilan o'rganildi. Quritilib tozalangan terilarning og'irligini prujinali tarozida (0.1 gramm aniqlikgachi) o'lchanildi. Junning uzunligi millimetirli metal lineyka yordamida o'lchandi.

- Teri satxi, teri uzunasi va eni ko'paytirilib aniqlandi. Uzunasi deganda bo'yin asosidan , dum asosigacha olindi, eni esa shu o'lchamning o'rtasi olindi.

- Ipaksimonligi, yaltiroqligi, qalinligi, jun qoplaminig quyuqligi organaliptik (qo'l va ko'z bilan) aniqlandi. Qorako'l terilar sifatini o'rganish, umumiy qabul qilingan uslubga asosan o'rganildi. B.I.K.I.T.I I.N.Dyachkov va boshqalar (1963).

- Teri navlarini O'zbekiston Respublikasining xom terilar uchun chiqarilgan O'Z RST-641-95 raqamli davlat standarti asosida aniqlanadi.

- Iqtisodiy samaradorligi, sof foydani, tannarxga nisbati bilan aniqlanadi.

- Ishdagi raqamli natijalar biometriya usulida ishlanib umumlashtirildi. M-arifmetik o'rtacha qiymat, b-o'rtacha kvadratik og'ishma, S_v -o'zgaruvchanlik koeffisienti, m-o'rtacha arifmetik xato, tg-ikki variasion qator, arifmetik o'rtacha qiymatlar solishtirilib (R-extimollik $R < 0.05$, $P < 0.01$, $P < 0.001$) topildi.

III.Bob

3.0 Tajiriyba natijalari

3.1 Bo'rdoqiga boqilgan qo'ylarni semizlik darajasini va tirik vaznining o'zgarishi.

Ixtisoslashtirilgan qo'y go'shti va qorako'lcha ishlab chiqarishda qo'ylarni to'la qiymatli oziqalar bilan boqish ularda go'sht va boshqa xo'jalik foydali belgilarni rivojlantirishning asosiy shartlaridan xisoblaniladi.

Qo'ylarni bo'rdoqiga boqishda bo'rdoqichilik natijalarni kuzatishda quyidagi Ko'rsatkichlar inobatga olinadi: boqishdan oldingi tirik vazn, bokishdan keyingi tirik vazn, o'sish surati, kinlik o'sishi.

Qo'ylar boqilgandan keyin va boqishdan avvalgi tirik vaznning farqlari o'sish suratini tashkil etadi. Kunlik o'sish suratini qo'ylarning boqilgan kun miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

A.S.Asomov va boshqalar (1988) malumoti bo'yicha qorako'lcha olishga mo'ljallangan qo'ylarga bir kunda 1.6-1.8 kilogramm donadorlashtirilgan oziqalar berish natijasida, qo'ylarning o'sish surati 15.6 kilogrammdan 16.8 kilogrammgacha va kunlik o'sishi 177-197 grammni tashkil etadi. Bu oziqa tarkibida 0.83-0.93 oziqa birligi va 160-180 gramm xazmlanuvcha protiyen bor. Bo'rdoqichilikning oxirgi davrida, qo'ylarning semirishi bilan rasion tarkibidagi to'yimli moddalar miqdori oshirilganda ratsionga 170-220 gramm xazmlanuvcha protiyen bo'lishi lozim.

Quyidagi jadvalda oddiy va donadorlashtirilgan oziqalar ratsionlar tarkibi va to'yimliliigi keltirilgan.

Oddiy va donadorlashtirilgan oziqalar tuzilgan ratsion tarkibi va to'yimlilik

№	Ko'rsatkichlar	Oddiy oziqalar	Donadorlashtirilgan oziqalar
1	Beda pichani , kg	0.5	0.5
2	Paxta shuluxasi , kg	1.5	1.5
3	Konsentratlar , kg	0.3	0.3
4	Paxta shrati , kg	0.3	0.3
5	O't uni , kg	--	0.2
6	Mineral qo'shimchalar , kg	--	0.1
Ratsionda :			
1	Oziqa birligi , kg	1.30	1.6
2	Xazmlanuvchi protein , gr	130	180
3	Sa , gr	12	18
4	R , gr	5	14
5	Karatin , mg	8	48

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, oddiy oziqalardan tuzilgan ratsion to'yimlilikidan ancha past. Yani donador oziqalardan tayorlangan ratsion tarkibida 0.3 oziqa birligi ko'p. Bundan tashqari donadorlashtirilgan oziqalar tarkibida mineral qo'shimcha oziqalar va o't uni qo'shib boyitilgan. Shuning evaziga donadorlashtirilgan oziqalardan tuzilgan ratsion tarkibida 50 gramm xazmlanuvchi protein, 6 gramm kalsiy, 9 gramm fosfor va 40 milligramm karatin oddiy ratsion tarkibiga nisbatan yuqori.

Shuni takidlash joizki oddiy ratsion tarkibida mineral moddalar va karatin qo'ylarning talabini to'laligicha qondira olmaydi.

Bizga malumki karatin ritsion tarkibida muxum o'rin tutadi. Donador ozika tarkibiga o't uni qo'shish natijasida qo'ylarning karatinga bo'lgan talabini to'laligicha qondira oladi.

Qo'ylarni oddiy oziqalar bilan oziqlantirilganda tabiiyki ularning o'sish surati xar xil bo'ladi. Yani qo'ylarni donador oziqalar bilan oziqlantirilganda ularning oqsil, vitaminlar, mineral moddalar va boshqa to'yimli moddalarga bo'lgan talabi to'laligicha qondirilib xayvonlarning maxsuldorligini oshirishga yordam beradi.

A.S.Asomov (1988) malumoti bo'yicha qo'ylarni oddiy oziqalar bilan og'ilda bo'rdoqiga boqish va S. I. Kedrova 1967 yil malumotlari bo'yicha qo'ylarni donador oziqalar bilan boqilganda taqqoslash o'rinlidir.

Quyidagi jadvalda qo'ylarni oddiy va donador oziqalar bilan boqilganda bo'rdoqichilik natijalari keltirilgan.

2-jadval

Qo'ylarni bo'rdoqiga boqish natijalari

Ko'rsatkichlar	Oddiy oziqalar b/n	Donador oziqalar b/n	Farqi,
Boqishdan oldingi tirik vazni , kg	37.5	38.8	1.3
Boqishdan keyingi tirik vazni , kg	48.7	53.3	4.6
O'sish surati , kg	11.2	14.5	3.3
Kunlik o'sish , g	87	113	26

Yuqorida keltirilgan malumotlardan ko'rinib turibdiki oddiy oziqalar bilan boqilgan qo'ylarning o'sish surati va kunlik o'sish donador oziqalar bilan oziqlantirilgan qo'ylarning o'sish suratiga nisbatan ancha past, yani donador oziqalar bilan boqilgan qo'ylarning o'sish surati va kunlik o'sish o'rtacha 29 foizga oshirish mumkun.



3.2 Ratsion to'yimlilikining qo'ylar go'sht maxsuldorligiga tasiri.

Bo'rdoqiga boqiladigan qo'ylarning go'sht maxsuldorligi nazorat so'yimi o'tkazish bilan o'rganiladi. Bunda so'yim oldi tirik vazni, qo'ylarni so'yishdan oldin bir sutka oziqa bermay aniqlaniladi. Tana og'irligi, qo'y so'yilgandan keyin kalla, ichki organlar, teri va oyoqlari sakrash bo'g'inlaridan pastki qismidan olib tashlanib og'irligi aniqlanadi.

So'yim og'irligiga tana, charvi va dumba og'irliklari kiradi. So'yim chiqimi so'yim og'irligining so'yim oldi tirik vazniga bo'lgan nisbatini tashkil etadi.

A.S.Asomov va boshqalar (1988) tajribalarida donadorlashtirilgan oziqalarning to'yimlilikini o'rganib, bu oziqalarni qo'ylarni bo'rdoqilashda ularning go'sht maxsuldorligiga bo'lgan tasirini o'rganadilar.

Donador oziqalar maxalliy yaylov oziqalari (yantoq, shuvoq va karrak), arpa, somon va konsentratlardan iborat edi. Aralashma tarkibiga 70-80 foiz dag'al oziqalar va 30-35 foiz kuchli oziqalar kiritilgan. Bu donadorlashtirilgan aralashma tarkibida bo'rdoqichilikning I davrda 0.60-0.65 ozika birligi, 70-75 gramm xazmlanuvchi protein, II davrda 0.80-1.0 ozika birligi, 116-120 gramm xazmlanuvchi protein va III davrda 1.2-1.4 ozika birligi va 150-170 gramm xazmlanuvchi protein bor edi. Bu oziqalar qo'ylarning go'sht maxsuldorligiga bo'lgan tasirini o'rganish uchun qo'ylarni boqishdan oldin tirik vazni aniqlandi va boqishdan keyingi tirik vazni xamda nazorat so'yim natijalari aniqlandi.



Nazorat so'yim natijalari

Ko'rsatkichlar	Qo'ylar		Farqi
	boqishdan oldingi, kg	boqishdan keyingi, kg	kg
So'yim oldi tirik vazni, kg	40.5	52.3	11.8
Tana og'irligi, kg	15.3	22.6	7.3
Charvi, gr	0.50	0.86	0.36
Dumba, gr	0.75	1.23	0.48
So'yim og'irligi, kg	16.15	24.68	8.53
So'yim chiqimi, %	40.8	47.1	6.3

Qo'ylarda go'sht maxsuldorligi birinchi navbatda semizligiga bog'liqdir. Qo'y qancha semiz bo'lsa, go'sht chiqimi shuncha yuqori bo'ladi.

Shuning uchun biz tajribada bo'lgan qo'ylarning semizligini o'rgandik. Qo'ylarning semizligi ularning tashqi tani tuzilishiga qarab va tanasining ayrim qisimlariga yog' to'planganligini aniqlab ko'rish bilan aniqlandi.

Semizlik 5 xil bo'ladi:

1. bo'rdoqi;
2. o'rtachadan yuqori;
3. o'rtacha;
4. o'rtachadan past;
5. oriq.

Qorako'l qo'ylarining eng qimmatli biologik xususiyati shundaki, ular dasht va yarim dasht sharoitida o'zini yaxshi xis etadi. Qorako'l qo'ylari boqilib turilsa tez semiradi va go'sht sifati anchagina yuqoli bo'ladi.

Qorako'l qo'ylari: qo'zilari o'rtacha 4-4,5 kg, sovliqlar 40-50 kg, qo'chqorlari 55-60 kg, jaydari zotli qo'ylar mutanosib ravishda qo'zilari 4,5-5,0;

sovliqlari 50-55 va qo'chqorlari 70-75 kg tirik vazn ko'rsatkichlari bilan xarakterlanib, bug'ozlik davri 150-155 kunni, o'rtacha 150 kunni, serpushtligi 95-105 foizni (xar 100 bosh qo'yga 95-105 qo'zi) tashkil etadi.

Qorako'l qo'ylari issiq, og'ir ekstremal sharoiti bilan xarakterlanuvchi, boshqa turdagi hayvon turlari kam uchraydigan cho'l regionlarida urchitiladi. Ular chidamliligi, konstutsionalmustahkamligi xisobiga o'zlarining ozuqaga bo'lgan talabini qondirish uchun sutkasiga 20-25 km va undan ham ko'proq masofani bosib o'ta oladi. Qish davrining ozuqa tanqisligi sharoitida ular undan oldingi mavsumlarda (baxor, yoz, kuz) to'plagan yog' zaxiralaridan foydalanadilar.

Qo'ylarning jinsiy voyaga yetishi 6-7 oylikdaboshlanib, 18 oylikda to'liq shakllanadi. Ushbu davrga kelib ular katta yoshdagi qo'ylar tirik vaznining 80 foizga teng tirik vaznga ega bo'ladilar.

Yetarli darajadagi ozuqa sharoitida qo'ylarning qisirlik darajasi 2-3 foizni tashkil etadi, 5-7 foiz sovliqlarda o'lik bola tug'ish xolatlari kuzatiladi.

Qorako'l qo'ylari 1 yilda 2 marta (baxorda, yoz-kuzda) qirqiladi. Ularning juni dag'al jun kategoriyasiga mansub bo'lib, tarkibida 3 xil tola yani tivit (15-25 foiz), oraliq tola (35-40 foiz) va qiltiq (35-50 foiz) tolalari mavjud. Jun sanoat uchun xomashyo bo'lib qolmay, qo'larni issiq va sovuqdan saqlovchi vosita xisoblanadi. Baxorgi jun uzunligi 14-20 sm, kuzgi jun 8-13 sm. ni tashkil qiladi. Jun maxsuldorligi yoshi va jinsi va tabiiy yaylovning xosildorligigabog'liq xolda 1,5 – 2,0 kg.gacha yetadi.

Qo'ylarni parvarishlash.

Buning uchun quydagilarga e'tibor qaratishmaxsadga muvofiq:

Qo'ylarni yaylovdaboqishni doimiy nazoratda tutish, zarur paytlarda (qishda, baxorda, kech kuzda) ularni qo'shimcha ozuqalar bilan taminlash choralarini ko'rib qo'yish;

Qish paytida qo'ylarni yaylovga quyosh ko'tarilgandan keyin xaydash va ularni iloji boricha sovuq va shamoldan pana joylarda boqish. Qo'ylarni doim

shamolga qarshi xaydab boqmaslik. Qo'ylarning, ayniqsa bo'g'ozligining oxirgi davridasovuq qorda yotib qolishga yo'l qoymaslik;

Sovuq kunlarda qo'ylarni qo'shimcha oziqlanirish va yopiq qo'ralarga qamash. Qo'ra va qo'tohlarning toza va quruq bo'lib turishini ta'minlash;

Yoz paytida qo'ylarni kechasi boqishni, kunduzi dam berib, kuniga 2 maxal sug'orishni ta'minlash, suv xovuzlarini vaqti – vaqti bilan tozalab turish;

Nimjon qo'ylarni aloxida guruhlariga ajratib, ularni qo'shimcha oziqlantirishni tashkil etish;

Qo'zilar ajratilgan qo'ylarni qochirim mavsumiga yaxshi tayyorlash uchun to'yimli ozuqalarga boy yaylovlarda boqish.

E'tiborga olish zarurki, bir bosh qo'yning yoshi, jinsiga bog'liq holda, yillik ozuqaga bo'lgan talabi 377 – 425 ozuqa birligin itashkil etadi.

Qo'ylarni qishda oziqlantirish va boqish.

Qo'ychilikda muxim va ma'sulyatli mavsum - qishlovni betalofat o'tkazish xisoblanadi. Qishlovni namunali o'tkazishda qo'ylarni yoshi, ranggi va tuzilishga aloxida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Yosh mollar sovuqqa nisbatan chidamsiz bo'lishini inobatga olib, ularga tegishli sharoitlaryaratish talabetiladi. Och tusli (oq, ko'k sur) va nozik jussali qo'ylar to'q tusli (qora) xamda mustaxkam va dag'al jussali qo'ylarga nisbatan issiqqa talabchan bo'ladi. Shuni inobatga olgan xolda ularni aloxidaguruhlarda saqlash va parvarishlashqishlovni betalofat o'tkazishning muxim omillaridan biridir.

Qishlov davrida qo'ylar kechalari albatta usti yopiq qo'ralarda saqlanishi, qo'ralarning ustidan nam o'tmasligi, tagi esa quruq bo'lishi lozim. Sovuq paytda qo'ylargaozuqa qoldiqlarinito'shama qilib yoyish talab etiladi. Yosh mollar suruvini qo'radan xavo issiy boshlashi bilan chiqarish, ingichka poyali, bo'ta va yarim bo'ta o'simlikli yaylovlarda o'tlash kerak.

Qo'ylarni oziqlantirishni doimiy nazorat qilish, zarur bo'lganda 1,2-1,3 kg aralashma ozuqalar (75% dag'al xashak, 25%konsentrat) bilan qo'shimcha oziqlantirish zarur. Qattiq sovuq paytda qo'ylarni yaylovgaxaydamay qo'ldan oziqlantirish, quduqdan yangi tortilgan iliqroq suv bilan sug'orish lozim.Dag'al

ozuqaning yeyiluvchanligini oshirish maqsadida ularni 2-3 sm uzunlikda berish samarali xisoblanadi. Qo'ylarga ozuqa ammonizatsiyalangan xolda berilsa, yeyiluvchanligi, xazimlanishi va quvvati ortadi.

Qish davrida qo'ylarning tuzga talabi 2-3 barobar ortadi. Shuning uchun ozuqalarga har bir bosh qo'yga kuniga 3-5 gr xisobida tuz qo'shib berish kerak.

Fevral oyi qishlovning eng ma'sulyatli davri xisoblanadi. Chunki bu davrda qo'ylar o'z bo'g'ozligining oxirgi oyiga o'tadi. Shuning uchun bu paytda qo'ylarni doimiynazoratda tutish, ularning qisir va bo'g'ozlarini aloxida guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq. Bo'g'oz qo'ylarni oziqlantirish va asrashni oxirgi 45 kunidaxomilasining jadal o'sishini xisobga olib amalga oshirish lozim.

Bo'g'oz va tuqqan sovliqlarni oziqlantirish me'yorlari.

A.Ombayev (2001 y) malumatiga ko'ra, tana nimtalanganidan so'ng go'sht, yog' maxsulotining maqdori xar xil yoshdagi va jinsdagi xayvonlarda taxminan bir biriga yaqindir. Bundan I-nav 42-45 foiz, II-nav 43-47 foiz, III-nav 9-12 foizni tashkil etadi. Tana og'irligining 15-22 foiz suyakdan iborat. Tanadan yaxlit chiqadigan suyak semizligi o'rtacha qo'ylarda 16.8 foizni, o'rtachadan yuqorida 16.6 foizni va bo'rdoqi qo'ylarda 15.1 foizni tashkil etadi.

Xar bir bosh qabul qilingan qo'ylarni 35.6 kilogrammdagisi bo'rdoqiga boqilib uni 63.0 kilogrammga yetkazib topshirishgan, yani xar bir bosh qo'ydan 27.4 kilogrammdan qo'shimcha tirik vazn olingan.

Jami bo'lib bo'rdoqiga boqish davrida 13152.0 kilogramm qo'shimcha tirik vazn olgan. Bir kunlik o'sish 88.94 grammni tashkil etgan. Bu esa rejaga nisbatan 1.97 gramm ortiq.

Yuqorida aytganlardan shuni xulosa qilish mumkinki yoshi bo'yicha brak qilingan qorako'l sovliqlarini qorako'lcha olish maqsadida intensiv ravishda bo'rdoqiga boqilsa ulardan qorako'lchadan tashqari ko'p miqdorda yuqori sifatli go'sht xam olinadi. Bu esa xalqimizning go'shtga bo'lgan talabini bir qismini qondira oladi.

4- jadval

Bo'rdoqiga boqish davrida qo'ylarning tirik vazni va semizlik darajasining o'zgarishi

№	Bo'g'ozlik davri, kun	Bo'rdokiga boqishdan			O'rtacha semizlik			O'rtachadan yuqori semizlik			Go'shtga topshirishdagi t/v		
		Bosh soni	Jami qo'ylar tirik vazni, kg	1bosh qo'yning tirik vazni, kg	Bosh soni	Jami qo'ylar tirik vazni, kg	1bosh qo'yning tirik vazni, kg	Bosh soni	Jami qo'ylar tirik vazni, kg	1bosh qo'yning tirik vazni, kg	Bosh soni	Jami qo'ylar tirik vazni, kg	1bosh qo'yning tirik vazni, kg
1	129	96	3408.0	35.5	20	1213.6	60.6	76	4757.6	62.6	96	5971.2	62.2
2	130	96	3417.6	35.6	16	977.6	61.1	80	5032.0	62.9	96	6009.6	62.6
3	131	96	3417.6	35.6	17	1045.6	61.5	79	4992.8	63.9	96	6038.4	62.9
4	132	96	3427.2	35.7	15	920.7	61.3	81	5127.3	63.3	96	6048.0	63.0
5	133	96	3408.0	35.5	19	1173.6	61.7	77	4989.6	64.8	96	6163.2	64.2
6	jami	480	17078.4	35.6	87	5331.1	61.24	393	24899.3	63.38	480	30230.4	63.0

3.3 Embrionning og'irligi.

Bizga malumki qo'ylardan qorako'lcha olish uchun bo'rdaqiga boqishda oziqlantirish tipi ularning teri maxsuldorligiga tasiri yuqoridir. Chunki oziqalarning to'yimlilikiga va qo'ylarni asrash sharoitlari xomilani rivojlantirishga tasiri katta bo'ladi.

K.Ylemecov (2000 y) malumotiga binoan qish mavsumida yaylov sharoitida bo'g'oz qo'ylar boqilganda xomilaning og'irligi 2901 gramm va og'il sharoitida boqilganda 4124 gramm, yani 42 foizga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

C.Yucupov (2005y) , C.Bozorov va boshqalar (2002 y) , A.Inayatov (2004 y) takidlashicha qo'ylarning birinchi bo'g'ozlikdavri kuchli oziqlantirilganda xomilaning rivojlanishiga katta tasir ko'rsatmaydi. Bu o'zgarishlarni bo'g'ozlikning ikkinchi yarmida kuzatish mumkin, chunki bu davrda xomila aktiv rivojlanadi. Aynan oziqlantirish tipi, bu davrda keskin tasir etishi mumkin.

A.Cultonov (2002 y) xar xil oziqlantirish tiplari qorako'lcha olish uchun boqilgan qo'ylarning teri maxsuldorligiga bo'lgan tasirni o'rganadi. Bu olim xar xil usulda boqilgan qo'ylardan olingan I navli qorako'lcha terilarning Ko'rsatkichlarini o'rganib chiqdi.

5-jadval

Beriladigan oziqalar

№	Saqlash usuli	Oziqlantirish tipi	Terilar soni	Xomila og'irligi,gr	Oshlangan teri			
					Vazni,gr	Satxi,mm	100sm ² dagi og'irligi, gr	Tananing uzunligi,mm
1	Og'ilda	Kansentratli	200	3878	169	972	17.4	4.5
2	Og'ilda	Kansentratli kuchli	200	4124	191	1036	18.2	4.6
3	Og'il yaylovda	Kansentratli	200	3910	174	969	18.0	4.3
4	Yaylovda	Xosildorligi o'rtacha yaylovda	200	2901	115	774	14.5	3.0

Yuqorida keltirilgan jadvalda ko'rinib turibdiki, oziqlantirish tipi va saqlash usuli xomilaning rivojlanishiga bo'lgan tasiri muxim. Yangi eng og'ir vazinli xomila og'il sharoitida kuchli- kansentratli tip bilan boqilgan qo'ylardan olingan. Ularning 130 kunlik xomila og'irligi 4124 grammni tashkil etadi. Bu Ko'rsatkich xosildorligi o'rtacha bo'lgan yaylovda boqilgan qo'ylarni xomila og'irligiga nisbatan 1223 gramm yuqori, yani 142 foizni tashkil etadi, bu Ko'rsatkich yaylov sharoitida boqilgan qo'ylardan olingan xomila og'irligiga nisbatan 1009 va 977 gramm yuqori yoki 134-133 foizni tashkil etadi. Og'ilda kuchli kansentratli tip bilan boqilgan qo'ylardan olingan xomilaning teri og'irligi 131 grammni tashkil etadi. Bu Ko'rsatkich og'il va og'il-yaylov sharoitida kansentratli tip bilan boqilgan qo'ylar xomila terisining og'irligiga nisbatan 17-22 grammga og'ir yaylov sharoitida boqilganda esa 76 grammga yuqori.

Satx o'lchami og'il sharoitida kuchli- kansentratli tip bilan boqilgan qo'ylar xomilasining terilari 1036 sm² ni tashkil etadi, bu Ko'rsatkich boshqa sharoitda boqilgan qo'ylarning Ko'rsatkichlariga nisbatin eng yuqori. Og'il va og'il-yaylovda sharoitida boqilgan qo'ylar xomilasining teri satxi deyarli bir xil bo'ladi, yani 969-972 sm², yaylov sharoitida boqilgan qo'ylardan olingan

xomilasining teri satxi o'lchami eng past yani 774 sm^2 . 100 sm^2 teri og'irligi Ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori natijalari og'ilda kuchli-oziqlantirish tipi bilan boqilgan qo'ylar xomilalaridan olingan va bu ko'rsatkich 18.2 grammni tashkil etadi. Og'il va yaylov-og'ilda kansentratli tip bilan oziqlantirilganda 17.4-18.0 grammni tashkil etadi. Bu Ko'rsatkich bo'yicha yaylov qo'shimcha oziqalar bilan oziqlantirilgan xomilalarida kuzatiladi va 14.5 grammni tashkil etadi. Embriion terilarning jun uzunligi quyidagicha. Eng uzun 4.6 millimetir yani og'il sharoitida kuchli kansentratli tip bilan boqilgan qo'ylar xomilasida og'il va og'il-yaylov sharoitida kansentratli tip bilan oziqlantirilgan qo'ylar xomilasining jun uzunligi o'rtacha 4.5-4.6 millimetir. Eng kalta jun uzunligi yaylov sharoitida boqilgan qo'ylar embriionlaridir. Bu qo'ylar o'rta xosildorli yaylovlarda boqilib qo'shimcha oziqalar bilan oziqlantirilmagan va bu Ko'rsatkich 3.0 millimetirni tashkil qiladi.

Qorako'lcha olish soxasida ilmiy ishlarni olib borgan olimlar A. A. Raximov (1967 y), V. G. Shmanov (1967 y), S.A.Asamov (1988 y), D.F.Boyko (1974 y), X.X.Mamatkozin (1974-1981 y) va boshqalarning fikricha qorako'l qo'zilarining og'irligi asosiy Ko'rsatkichlaridan biri bo'lib muxim xajalik axamiyatiga ega ekanligini, terisining katta kichikligi, jun qoplaminin quyugligi, teri to'qimasining qalinligi, qorako'lcha terisining embriion og'irligiga bog'liqligini o'rganganlar. Biz yuqorida aytganlarimizni etiborga olib xo'jaligida yoshi bo'yicha yaroqsiz bo'lgan sovliqlardan olingan 131-134 kunlik embriionlarning og'irligini o'rgandik. Malumki narmal qorako'l terilar 149-155 kunlik bo'lganda bo'g'oz sovliqlardan olinadi, qorako'lcha esa 131-134 kunlik embriionlardan olinadi. Qorako'lcha terilar juda chiroyli bo'lib, unga talab juda katta. Ularning jun qoplami juda qisqa bo'lib, kuchli yaltiroq, shishasimon juni satxiga yopishgandir.

Tekshirishlardan malumki, qorako'l qo'zilarining tirik vazni 4.0-4.4 kilogramm bo'ladigan bo'lsa, bunday qo'zilardan olinadigan qorako'l terilarining sifati shuncha yuqori bo'ladi. Embriionning og'irligi bo'g'oz qo'yni jadal boqish va asrash sharoitiga, tirik vazniga, kanstitutsiyasiga, katta-kichikligiga va irsiy xususiyatlariga, rangi va egizakligiga bog'liq bo'lib tanlash va saralash ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganidagina katta va sifatli qorako'lcha olishimiz mumkin

bo'ladi. Yuqorida aytilganlarni nazarga olib biz tajribada olingan embrionlarning og'irligini o'rgandik.

O'rganilgan natijalar jadvalda keltirilgan. Jadval raqamlaridan ko'rinib turibdiki embrionlarning kunida farqi kam bo'lganligiga qaramasdan (3-4 kun) ularning og'irligidagi farqi quyidagicha bo'ladi: Masalan, qora rangli bittalik embrion bo'g'oz sovliqdan so'yib olingan 129 kunlikda embrionning og'irligi 2.52 ± 0.08 kilogramm bo'lsa, 132 kunliklarida esa 2.73 ± 0.12 kilogramm va 133 kunligi 2.82 ± 0.31 kilogrammga to'g'ri keldi. Ularning o'rtasidagi farq 210 grammdan to 300 grammga teng bo'ldi. Egizaklarda esa bu farq ancha yuqori bo'lganligini aniqladik, 129 kunlik embrion og'irligi 132 kunlik embrionning og'irligidan farqi 310 grammni, 133 kunlik orasidagi embrionning og'irligidagi farqi 480 grammni tashkil etdi. Kunlar orasidagi embrionning og'irligidagi extimollik $R < 0.01$ dan $P < 0.001$ ga teng bo'ldi. Sur rangli embrion og'irligi Ko'rsatkichlari xuddi shundayligini aniqladik.

6-jadval

Embrion og'irligi

№	Bo'g'ozlik davri, kun	Qora				Sur			
		Yakka		Egiz		Yakka		Egiz	
		n	M±n	n	M±n	n	M±n	n	M±n
1	129	10	2.52 ± 0.08	10	2.10 ± 0.10	10	2.36 ± 0.13	10	1.98 ± 0.22
2	130	10	2.58 ± 0.09	10	2.91 ± 0.13	10	2.47 ± 0.06	10	2.11 ± 0.20
3	131	10	2.69 ± 0.11	10	2.35 ± 0.18	10	2.58 ± 0.15	10	2.21 ± 0.26
4	132	10	2.73 ± 0.12	10	2.41 ± 0.18	10	2.64 ± 0.13	10	2.29 ± 0.19
5	133	10	2.82 ± 0.31	10	2.59 ± 0.19	10	2.64 ± 0.11	10	2.36 ± 0.17

Shuni qayd etib o'tish kerakki yakka va egiz bo'lgan embrionlar orasidagi og'irlik bo'yicha farq uncha katta emas. Masalan, yakka va egiz bo'lgan 129 kunlik embrionlarning orasidagi farqi 410 grammni, 130 kunlik orasidagi farqi 370 grammni, 131 kunliklardagi 310 grammni, 132-133 kunlikdagi farqlari esa 320-

330 grammni tashkil etdi. Bunda extimollik darajasi $R < 0.01$ dan $P < 0.001$ ga teng bo'ldi.

Qiziqarli tomoni shundaki kunning ko'payishi bilan yakka va egizak bo'lgan embrionlarning og'irligidagi farqi kamayib borganligini kuzatdik. Jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki qora rangli embrionlarning og'irligi Sur rangdagilarga nisbatin biroz yuqoridir. Masalan, yakka bo'lganlar orasida farq 129 kunliklarda 120 grammni, 130-131 kunliklardagi farq 110 grammni va 132 kunliklardagi farq esa 150 grammni tashkil qildi. Ranglar orasidagi extimollik $R < 0.05$ dan $P < 0.01$ ga teng bo'ldi.

3.4 Teri sath kengligi.

Sath kengligi - bu Ko'rsatkich qorako'l terilar uchun va umuman barcha terilar uchun eng muxim xisoblanadi. Qorako'lcha guruxdagi terilar katta guruxdagi terilardan ancha kichik bo'ladi, bu albatda tushunarli chunki bu terilarda etilmagan xomiladan olingan.

M.D.Zokirov va boshqalar mamumoti bo'yicha agar qorako'l terilar yuzasini 100 foiz deb qabul qilinsa qorako'l-qorako'lcha terilari 87.3 foizni, qorako'lcha 75.6 foizni, guloq - 60.9 foizni va yoqabob terilar 115.2 foizni tashkil qiladi. Qora bilan sur terilar orasida xam xuddi shunday tafofudlar qayd qilingan. Shu bilan birga xamma turdagi xom ashyoda xam Qora terilar yuzasining kattaligi bilan farq qiladi, sur terilar esa, qora terilarga nisbatan kichikroq ekanligi bilan ajralib turadi.

Xar xil turdagi terilar yuzasining bunday farqli bo'lishiga sabab ularning xomiladan embrional rivojlanishining turli davrlarda va yengil tug'ilgan qo'zilar xayotining dastlabki kunlarida shilib olinishidadir.

X.X.Mamatkazin va boshqalar (1999 y) malumotlaridan Kirpuk va Maskva jaketi navlariga mansub terilar yuzasining boshqa xil terilarga nisbatan eng mayda ekanligi bilan; Kavkaz qalin I, Kavkaz yupqa I, qalin jaket, qovirg'asimon qalin I va yassi qalin navlarida esa yuzaning eng yirikligi bilan xarakterlanadi. Jaket I,

qovurg'asimon yupqa II va yassi yupqa I navlariga mansub terilar yuzasining o'rtacha kattalikda ekanligi bilan ajralib turadi. Qora va Sur rangli terilarda xam xuddi shunday qonuniyat aniqlangan. Terilarning rangiga qarab bir-biridan birmuncha farq qilishi xayvonlarning biologik xususiyatlariga bog'liq. Teri yuzasining kattaligi seleksion-naslchilik ishlarining yo'nalishiga bog'liq va u malum darajada xom ashyoning navini ifodalashi mumkin.

M.D.Zokirov va boshqalar (1999) ma'lumatlariga ko'ra yaylov – oziqa sharoiti va qo'ylarni boqish darajasi xam bo'g'ozlikning so'ngi davrida terilar kattaligiga va qorako'l maxsulotiga tasir ko'rsatadi. Yaxshi yaylov oziqa sharoitida joylashgan xo'jaliklarda ("Konimex", "Nishon" davlat naslchilik zavodi, "Chimqo'rg'on" shirkat xo'jaligi) olinayotgan qorako'l terilar yuzasining kattaligi jixatdan nisbatan og'irroq sharoitda joylashgan xo'jaliklarda ("Jongeldi" naslchilik xo'jaligi, "Madaniyat" xo'jaligi) olinayotgan terilardan 9.2-10.3 foiz afzal ekani aniqlandi. Shu bilan birga yaxshi semirgan sovliqlardan semizligi past bo'lgan sovliqlarning qo'zilariga nisbatan ancha katta (10-12 foiz) teri beradigan yirik qo'zilar olindi.

A.Ombayev va boshqalar (2001 y) ma'lumoti bo'yicha sovliqlarning yoshi xam qo'zilarining rivojlanishiga tirik vazniga va teri yuzasining kattaligiga tasir etadi. Agar o'rta (3-5 yosh) sovliqlardan olingan qo'zilar terisini 100 foiz deb qobul kilinsa, u xolda bir yoshar sovliqlardan olingan qo'zilarining terisi 66.5 foiz, ikki yoshar sovliqlardan olingan qo'zilarining terisi 89.5 foiz va tishiga ko'ra brak qilingan sovliqlardan olingan qo'zilarining terisi 90.9 foiz bo'ladi.

Qo'zilarining tirik vazni va ularning bir yo'la nechtdan to'g'ilganligi xam terilar yuzasi bilan bevosita bog'liqdir. Yaxshi rivojlangan va yirik to'g'ilgan qo'zilardan yirik yuzali, mayda qo'zilardan - mayda yuzali terilar olinadi. Agar to'g'ilgan paytdagi tirik vazni 4.5 foiz bo'lgan qo'zilarining teri yuzasi 100 foiz deb qabul qilinsi, tirik vazni 3.5 kilogramm bo'lgan qo'zilarining terisi 87.7 foizni, 2.5 kilogramm tirik vaznli qo'zilarniki 73.1 foizni va 1.7 kilogramm tirik vaznli qo'zilar terisi 49.4 foizni tashkil etadi.

Qorako'l terilariga texnologik ishlov berilganda ularning yuzasi kichraydi. Birlamchi kanservalash jarayonida, jumladan ularni quruq tuzlashda upqa mag'izli terilar esa 4.0-4.8 foiz qirishadi, tuzsiz quruq kanservalanganda terilar tarang tortib qo'yib qurutilishi tufayli yangi xolatiga nisbatan 2 foiz kirishadi xolos.

S.A.Asamov va boshqalar (1988 y) malumoti bo'yicha to'la kanservalash, oshlash jarayonida qorako'l terilar yuzasining kattaligi asl xoliga qaytadi. Biroq quritish jarayonida xarorat va boshqa omillarga qarab terilarning kirishishi anchagina o'zgarib turadi. Odatdagi quritish maydonchasida oftobga yoyib quritilganda quruq tuzlangan terilar yuzasining kattaligiga nisbatan kirishish 11.0 foizni, odatdagi maydonchada soyada quritilganda 7.23 foizni, odatdagi maydonchada kechasi quritilganda 7.11 foizni, beton yotqizilgan maydonchada oftobda quritilganda 10.99 foizni, ikkinchi marta tortib qo'yib quritilganda 5.19 foizni, maxkamlab qo'yib mexanik usulda quritilganda 2.0 foizni tashkil qiladi.

Demak, quritish usuli shu jumladan, xovoning xarorati, kirishish, kattaligiga bevosita tasir etadi. Xarorat 18 – 24 S⁰ bo'lganda oshlangan terilarning quruq tuzlangan terilarga nisbatan qirishishi 6.6 foizni, 24 – 34 S⁰ bo'lganda 11.04 foizni, 32 – 41 S⁰ da 14.4 foizni, 39 – 49 S⁰ da esa 15.9 foizni tashkil etadi.

Xarorat past bo'lganda terining qurishi sekin boradi va oshlangan qorako'l terilar kamroq kirishishadi, xarorat orta borgan sari terilar shuncha tez quriydi va qo'proq kirishishadi. Turi, yuzasi va rangi xar xil bo'lgan oshlangan qorako'l terilar xar xil darajada kirishishadi.

M. D. Zokirov va boshqalar (1999 y) malumotga ko'ra xar xil turdagi qorako'l terilar tovar xususiyati jixatdan turli sifat katigoriyalari bilan karakterlanadi. Shuning uchun quritish jarayonida ularning kirishish kattaligi bir xil bo'lmaydi. Bir xil navga (kovurg'asimon yupqa I) mansub, lekin, yuzasining kattaligi xar xil bo'lgan terilar xar xil kirishadi: mayda yuzali (600 – 900 sm²) terilarning quritish jarayonidagi kirishishi 12.9 foizni, o'rtacha (900 – 1100 sm²) terilarniki 13.8 foizni va yirik (1100 sm² dan katta) terilarniki 15.3 foizni tashkil qiladi. Sath kengligi, terining yeng muxim tovar xususiyatlardan biridir. Terining

sath kengligi boshqa xususiyatlari bilan mustaxkam bog'liqdir. Shuning uchun qorako'l teri sathi qimmatini oshiradi.

Sath kengligi qo'zining tirik vazniga, uning yoshiga, kanstitutsiya xususiyatlariga, ona qornida so'ngi rivojlanish tezligi, ona qo'yning bo'g'ozlik davridagi axvoli, oziqlantirish darajasi, onaning katta kichikligi, tug'ilgan qo'zilar soniga va boshqa sabablarga bog'liqdir.

Qo'zilarining xar bir kilogramm tirik vazniga o'rtacha 600 sm² teri sathi to'g'ri kelishini S.V.Buylov (1970 y), V.G.Shumanov (1989 y) va boshqalar aniqlaganlar.

Terilarning sathi qo'zilarining katta kichikligiga, ularning yoshiga, o'tlaq sharoitiga bog'liq. Sathi 700 sm² dan kam bo'lgan terilar ko'pincha onadan uchta va undan ortiq to'g'ilgan qo'zilardan olinadi. Birinchi marta tuqqan qo'zilardan mayda terilar olinadi.

Teri tuzlab quritilgandan so'ng uning sathi o'rtacha 23.8 foiz ortadi tortiladi. Yupqa terilarga nisbatan ko'proq bo'ladi.

Qoidaga muvofiq terining sathini bilish uchun bo'yin asosidan dumining xarakatchan umurtqasigacha masofani terining o'rta qismi kengligiga ko'paytiriladi.

Xom ashyoning tovar xossalariga baxo berishda qorako'l terilar yuzasining kattaligi muxum axamiyatga ega. Teri qancha katta bo'lsa, buyum tikishda ular shuncha kam (dona xisobida) sarflanadi. Terilarning sifati va tovar xossalari xam ularning kattaligiga bog'liq.

Amalda bo'lgan davlat standartiga muvofiq qora, va sur qorako'l – qorako'lcha terilar yuzasini kattaligiga qarab boxo beriladi: yuzasining kattaligi 900 sm² dan yuqori bo'lgan terilar yirik qorako'l – qorako'lcha, yuzasi 600 – 900 sm² bo'lgan terilar o'rtacha, yuzasi 400 – 600 sm² bo'lgan terilar mayda qorako'l – qorako'lcha xisoblanadi, yuzasining kattaligi 400 sm² dan kam bo'lgan terilar esa sathiga ko'ra brak xisoblanadi.

Bizlar tajribamizda xar xil kunlikdagi embrionlarda teri sathini o'rgandik.

Teri satx kengligi (sm²)

№	Bo'g'ozlik davr, (kun)	Qora				Sur			
		Yakka		Egiz		Yakka		Egiz	
		n	M±n	n	M±n	n	M±n	n	M±n
1	129	10	985.4±15.0	10	716.5±12.6	10	948.7±13.4	10	722.4±6.3
2	130	10	1006,0±15,3	10	730,3±11,3	10	951,0±14,5	10	725,0±15,8
3	131	10	1041,0±15,8	10	761,0±12,1	10	988,3±13,8	10	758,0±16,0
4	132	10	1055±16,3	10	782,3±13,3	10	996,8±15,1	10	791,3±17,7
5	133	10	1062,3±15,8	10	793,0±14,0	10	1015,0±16,6	10	805,6±17,6

7-jadval raqamlaridan ko'rinib turibdiki embrion kunning kattarishi bilan unda satx kengligi o'zgaradi, lekin bu o'zgarish uncha katta emas. Yakka bo'lgan qora rangli embrionda terisining satx kengligi 129 kunligida 985.4 sm² bo'lsa, 130 kunligida faqatgina 21.4 sm² ga ko'paygan, 131 kunligida 35.5 sm² ga va 132 kunligida 14.0 sm² ga va tajribaning oxirida 7.0 sm² ga ko'paygan. Tajribaning birinchi kunida embrionlarda satx kengligi 985.4 sm² ga teng bo'lsa oxirgi kunida 1063.3 sm² ga teng, yani farq 77.9 sm² ni tashkil etdi. Xuddi shunday o'zgarish sur gangli terilarda xam uchraydi, yakka va egiz bo'lgan embrionlarda teri satx kengligi taqqoslab ko'rilganda aniq bo'ladiki teri satx kengligi serpushtlikka xam bog'liqdir.

Birinchi guruxda yakka va egiz bo'lgan qora rangli embrionlarning teri satx kengligi farq 268.9 sm² ni tashkil etadi. Ikkinchi guruxda 275.7 sm² va uchinchi guruxda 280.5 sm², to'rtinchi va beshinchi guruxlarda tegishlicha 273.1 va 269.3 sm² ni tashkil etadi.

Sur rangli embrionlarda esa guruxlar bo'yicha tegishlicha 226.4 sm² ; 226.0 sm²; 230.3 sm² ; 205.5 sm² va 209.4 sm².

Bu xalat xam shuni ko'rsatadiki serpusht qo'ylarni qo'shimcha ravishda rasioniga boshqa kuchli oziqa kirgizish zarur.

Qora va sur rangli embrionlar beradigan satx kengligini taqqoslab ko'rilganda bir birining orasidagi farq juda kam yani qora rangli terilar foydasiga 30 – 40 sm² ni tashkil etgan.

3.5 Teri sifati

3.5.1 Jun qoplaminig ipaksimonligi.

Jun qoplaminig ipaksimonligi sezgi orqali, tola tutamini bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasida paypaslab ko'rish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda qorako'l terilarning xammasida xam tola qoplami ipaksimonligi bir xil emasligini sezish mumkin, bazilari juda mayin, boshqalari dag'al yoki quruq ekanligini payqash mumkin. Boshqa belgilar teng bo'lgani xolda tolalarining yetarli darajada ipaksimon bo'lmasligi terilar qimmatini pasaytirib yuboradi.

Tola qoplaminig ipaksimon mayinligi barra tipi tolalar uzunligi va ingichkaligi bilan bog'liqdir. Yo'g'onlashgan va quruq tola dag'al bo'ladi. Yassi va yarim doirali qalam gul jingalaklarga xos bo'lgan tolalar anchagina ipaksimon ekanligi bilan xarakterlanadi.

Shuni aytib o'tish kerakki amaliyot ishda tola qoplaminig kuchli darajada ipaksimon va quruq xillariga ajratish qobul qilingan. Ipaksimonlikning bu kategoriyalarini osongina payqab olish mumkun.

Malumki, tana qoplaminig ipaksimonligi uning yaltiroqligi bilan o'zoro bog'liqdir. Bu esa shu ikkala belgi qanchalik ko'zga tashlanib turishini aniqlashni osonlashtiradi. Embriion terilarida jun qoplami ipaksimonligi katta axamiyatga egadir.

Embriion terilarining junining ipaksimonlik darajasi undagi gul turlari, junlarning tuzilishi va qalinligiga, junidagi qiltiq va tivit junlarning ko'p ozligiga, junlarning jingalaklanish shakliga, moy – teri miqdoriga bog'liq.

Qiltiq junlar qancha ko'p bo'lsa uning ipaksimonligi shuncha yaxshi bo'ladi, eng yuqori navli terilar juni doimo ipaksimon bo'ladi. Teridagi junlar qancha yassi bo'lsa ipaksimonlik darajasi xam shuncha yuqori bo'ladi. Ipaksimonlik 5 xil bo'ladi: kuchli, meyorida, yetarsiz, quruq va dag'al bo'ladi.

3.5.2. Jun qoplaminig quyugligi.

Jun qoplaminig quyugligi teri yuzasidagi tolalar miqdori bilan belgilanadi. Mayin junli qo'ylar terisining 1mm^2 yuzasida 72 – 75 tagacha, qorako'l qo'zilari terisida esa 18 – 65 tagacha jun follikulalari bo'ladi.

Tolalarning ingichkaligi bir xil bo'lsa ularning quyugligi o'siqligiga tasir etmaydi. Birinchi nav terilar xamisha quyug bo'ladi.

Jun tolalari qoplaminig quyugligi qorako'l terilardagi jingalaklar sifatining muxim Ko'rsatkichi xisoblanadi. Bu Ko'rsatkich paypaslab ko'rish yoki 1mm^2 teri yuzasidagi tolalarini sanab chiqish yo'li bilan aniqlanadi.

Jun qoplami juda quyug bo'lgan terilarda jingalaklar qiyishqoq, pioshiq va choklari tor bo'ladi; terida jingalaklarning joylanish naqshi ko'rinib turadi. Jun qoplami quyug bo'lsa, jingalaklar qayishqoqligi va pshiqligi o'rtacha bo'lib, choklar aniq ko'rinib turadi, jingalaklarning joylanish naqshi nixoyatda aniq bo'ladi. Tolalar qoplami quyugligi yetarsiz bo'lsa jingalaklar bo'sh, uncha qayishqoq emas, teri to'qimasi qo'lga unab turadi. Teri junsizdek tuyuladi.

Mayin jingalakli quruq tuzlangan qorako'l terilarining 1mm^2 yuzasida o'rta xisobda 52 dona, o'rta jingalakli terilarda 49 dona va yirik jingalakli terilarda 43 dona tola bo'ladi.

Embriion terilarida junning quyuglik darajasi undagi gul turlari, junlarning tuzilishi va ipaksimonligiga junning qiltiq va tivit junlarning ko'p ozligiga, jingalaklanish shakliga, moy – teri miqdariga bog'liqdir. Teridagi junlar o'rtacha quyug bo'lsa uning navi yuqori bo'ladi, gullari, jingalaklari aniq ifodalanadi. Jun tolalarining quyugligi 3 – xil bo'ladi: juda quyug, quyug, yetarsiz yoki siyrak.

3.5.3 Jun qoplaminig yaltiraqligi.

Jun tolalari qoplaminig yaltiroqligi xam uning ipaksimonligi kabi qorako'lning muxum xususiyati xisoblanadi. Malumki boshqa jixatlari teng bo'lgan xolda yaltiroq tolali terilarga avzallik beriladi.

Jun tolalari qoplarning yaltiroqligi uning morfologik tuzilishiga, jumladan, tangachali qatlamning tuzilishiga uning shakli va kattaligiga, shuningdek jingalakdagi tolalarning bukilish burchagiga bog'liq.

Jun tolalari qoplarning yaltiroqlik darajasini quyidagi turlarga ajratish kabul qilingan: kuchli yaltiroq, meyorli, yetarsiz, shishasimon va xira.

Tola uzunligining ustki yarim qismida tangachali qatlamning uzilishida xar bir qorako'l guruxi uchun xarakterli tafovutlar borligi aniqlanmagan, uning pastki yarim qismida esa jaket qorako'l guruxiga kiruvchi yarim doirali kalami gul jingalaklaridagi koplag'ich tolalarining tubi tomon yo'nalishda xalqasimon tipda bo'lmagan o'rtacha yirik tangalar borligi aniqlangan, ularning balandligi enidan kattaroqdir. Balandligi eniga nisbatan 1:1,7 va 1:1,9 ni tashkil qiladi. Bunday tangachalar tekis qavat xosil qilib joylashgan va chetlari xam nisbatan tekis.

Turli xil qorako'l guruxlarida jun tolalarining tangachalari xar bir tur uchun xarakterli bo'lgan o'ziga xos morfologik tuzilishga ega. Xar bir qorako'l teri guruxidagi tangachalar satxining tuzilishi va bir biriga zich yopishib turishiga xos xususiyatlar ularning yorug'likni qaytarishidagi tafovutlar keltirib chiqaradi.

Jun qoplarning yaltiroqligi sezgi orqali, ko'z bilan ko'rish yani yoruhlikga tutib ko'rish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda qorako'l terilarning xammasi xam tola koplami yaltiroqligi bir xil emasligini sezish mumkin, bazilari kuchli yaltiroq, boshqalari shishasimon, yetarsiz, xira bo'lishi mumkin. Tolalarining yetarli darajada yaltiroq bo'lmasa uning qimmatini pasaytirib yuboradi. Tola qoplarning yaltiroqligi terining barra tipi, tola uzunligi va ingichkaligi, xamda jun tolalarining ipaksimonligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Yo'g'onlashgan va quruq tolali terilarda yaltiroqligi yetarsiz bo'ladi. Yassi va yarim doirali qalami gul jingalaklariga xos bo'lgan tolalar anchagina yaltiroq ekanligi bilan xarakterlanadi.

Shuni qayd qilib o'tish kerakki, amaliy ishda tola qoplarning kuchli darajada yaltiroq, meyorli yaltiroq, yetarsiz yaltiroq, shishasimon va xira xillariga ajratish kabul qilingan. Yaltiroqlikning bu kategoriyalarini osongina payqab olish mumkin.

Malumki, tola koplaminig yaltiroqligi uning ipaksimanligi bilan o'zoro bog'liqdir. Bu esa shu ikkala belgini qanchalik ko'zga tashlanib turishini aniqlashni osonlashtiradi.

Embrion terilarda jun qoplaminig yaltiroqligi katta axamiyatga egadir. Embrion terilarning yaltiroqligi uning gul turlari, junning qalinligi, jundagi qiltiq va tivit tolalarning ko'p ozligiga, tolalarning jingalaklanish shakliga bog'liq bo'ladi.

Qiltiq tolalar qancha ko'p bo'lsa uning yaltiroqligi shuncha kuchli bo'ladi, eng yuqori navli terilar kuchli yoki meyorli yaltiroq bo'lishi kerak.

Jun tolasining uzunligi.

Jun tolasining uzunligi terining bashqa tovar xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun xam xozirgi vaqtda bu belgiga juda katta etibor berilmaqda. Jun uzunligi teri qalinligiga, qo'zining tirik vazniga, konstitusiyasiga gul o'lchamiga bog'liqdir. Lekin, u xam irsiyat xususiyati ekanining oraliq vaziyatda nasildan nasilga o'tishini S.Ye.Shaptakov (1972 y) isbotladi. I. N. Dyachkov (1987 y) esa gul uzunligi bilan teskari bog'lanishi borligini yozadi, yani jun uzayishi bilan gul uzunligi kamayadi va aksincha. Jun tolasining uzunligi bir qo'zining xar xil qismida xar xil bo'ladi, eng kaltasi sag'rida va eng uzuni bo'ynida bo'ladi.

Qorako'l qo'zilar jun qoplamidagi tolalarning uzunligi ular terisining qiymatini belgilaydigan asosiy xususiyatlardan biri xisoblanadi. Qorako'lchilikda jun tolasining uzunligi deganda asosan qiltiq tolalarning to'g'irlangan xolatdagi uzunligi tushuniladi. Uni bir necha usul bilan o'lchanadi.

Millimetrli metal leneykani gul oralig'iga qo'yib, so'ngra bosh bormoq bilan gul ochilishi tomonidan ko'tarib to'g'irlanib o'lchanadi.

Tola yulib olinib, so'ngra lineykaga qo'yib o'lchanadi (yulib olish usuli).

Tala o'tkir lezva bilan terisi qo'shib birga qirqib olib so'ngra o'lchanadi (kesib olish usuli).

bosh va ko'rsatkich bormoqlar ushlab chamalab ko'rish bilan aniqlanadi.

Bunda necha millimetrligi emas, balki kalta, o'rta, uzun deb taxmin bilan yoziladi.

Jun uzunligi asosan dumg'azada (sag'rida) va yelkada o'lchab aniqlanadi. Qorako'l terisiga qabul qilishda esa terining bo'ynidagi jun uzunligi to'g'rilanib o'lchab ko'rib qabul qilishda esa terining 30 millimetrgacha oq, sur, va oq terilarga esa 40 millimetrgacha bo'lsa normal teriga qabul qilinadi. Agar 30 millimetrdan oshsa va 50 millimetrgacha bo'lsa yoqabob teriga o'tadi, undan uzun bo'lsa po'stinbob qo'zi terisiga o'tadi. Qorako'l qo'zilar jun tolasining uzunligi ularning turli qisimlarida turlicha bo'ladi.

A.Gaziyev (2001 y) malumotiga qaraganda qorako'l terisining turli qisimlarida qilchiq tolalarining o'rtacha uzunligi quyidagicha bo'lgan, qorin ostida 11.4 millimetr, sag'risida 13.2 millimetr, orqa qirrasida 13.6 millimetr, yelka ustida 15.8 millimetr, surrak ustida 16.3 millimetr, bo'ynida 19.7 millimetrdni tashkil qilgan. I. N. Dyarkovning (1963 y) takidlashicha bir qo'zining bir xil qismida, bir biriga yonma – yon joylashgan xar xil shakil va turdagi gullar ko'pincha bir xil uzunlikka ega bo'ladi.

Jun tolasining uzunligi gul o'lchamining klasslarga bog'liq bo'lishini

R.G.Voxiov (1974 y), B.L.Isayans (1971 y) qayd qilgan. Tola uzunligini bir sovliqdan to'g'ilgan qo'zilan soniga bog'liqligini xam yozgan.

S.E.Shaptakov (1972 y) tola uzunligi xam irsiyat xususiyati bo'lib, ota onaga bog'liq ekanligini qorako'lchilikda birinchi bo'lib ko'rsatgan. Shunga ko'ra jun uzunligining oldini olish choralarini, kavkaz barra tipini kamaytirish yo'lini xam ko'rsatganlar. Tola uzunligiga qo'zi rangi, rang – tusi, rang barangligi xam bog'liqdir. Jun uzunligining qorako'lchilikda axamiyati juda kattaligini xisobga olib (1990 y) yangi qo'llanmada uchga bo'lib ko'rsatilgandir.

R.G.Voxiyev va boshqalar (1972 y) qorako'lcha qo'zilar o'sishi bilan xar xil gullardagi tola uzunligining o'sishini ko'rsatib gul turlariga xar xil bo'lmasligini isbotladi.

Qorako'lichilikda chatishtirish ko'llanilganda xam jun uzunligi F_2 da ancha uzun bo'lishini va F_3 da esa yani sof zotliga yaqinlashuvini fin landrasi zoti bilan chatishtirilib S.E.Shaptakov (1995 y) isbotladi.

Jun uzunligi bilan qalami gullar uzunligining esa teskari bog'lanishi birligini A.P.Vorebyevsskoy (1970 y) yozgan.

M.D.Zokirov va S.Yu.Yusupovlar (1991 y) jun uzunligi tanlash va juftlashga bo'g'liq deb yozadilar.

Jun uzunligi meyorda qorako'lda 30 millimetrgacha bo'lishi yo'l qo'yiladi, faqatgina oq va och – sur terilarda 40 millimetrgacha bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

Agar qorako'l terisining bo'yin qismida jun tolasi shu ko'rsatilgan uzunlikdan ohsa yaqobob teriga o'tkaziladi. Yaqobob 50 millimetrgacha bo'ladi tola uzunligi bundan ohsa po'stinbop, qo'zi terisi bundan ohsa qo'zi terisi deyiladi.

Biz o'z tajribamizda xar xil kunda so'yib olingan terilarning jun tolasi uzunligini o'rgandik. Jun tolasi uzunligi bo'g'oz sovliqlarning boqish va asrash sharoitlariga, teri oo'irligiga, konstitutsiyasiga, katta ihkichikligi va irsiy xususiyatlariga, rangiga va egizligiga bog'liq bo'lishidan tashqari, embriinning og'irligiga, tanlash va saralashga, xamda rangiga bog'liq bo'lishi bo'lmasligini ko'rib chiqdik.

8-jadval

Jun qoplaminig uzunligi (mm)

№	Bo'g'ozlik davri (kun)	Qora				Sur			
		Yakka		Egiz		Yakka		Egiz	
		n	M±n	n	M±n	n	M±n	n	M±n
1	129	30	4,31±0,19	36	4,04±0,16	30	4,51±0,21	36	4,19±0,11
2	130	30	4,80±0,17	36	4,73±0,12	30	4,98±0,17	36	4,95±0,13
3	131	30	4,99±0,15	36	4,83±0,14	30	5,28±0,13	36	5,20±0,14
4	132	30	5,80±0,17	36	5,78±0,18	30	6,01±0,14	36	5,96±0,15
5	133	30	6,03±0,31	36	5,96±0,21	30	6,40±0,15	36	6,20±0,20

O'rganilgan natichalar jadvalda keltirilgan bo'lib, 8 – jadval raqamlaridan ko'rinib turibdiki jun tolasining uzunligi qaysi kunlikda so'yilishiga qarab farqi borligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Masala: qora rangli bittalik embrion bo'g'oz sovliqlardan so'yib olinganda – 129 kunligida jun tolasining uzunligi $4,31 \pm 0,19$ millimetr bo'lgan bo'lsa, 132 kunligida esa, $5,80 \pm 0,17$ millimetrga, 133 kunligida $6,03 \pm 0,31$ millimetrga to'g'ri keldi, ularning o'rtasidagi farq 23 millimetrdan to 1,72 millimetrgacha teng bo'ldi.

Egizaklarda esa bu farq ancha yuqori ekanligini aniqladik. 129 kunlik terining jun tolasining uzunligi 132 kunlik embrionning junning tolasidan farqi 1,70 millimetrga teng bo'lgan bo'lsa, 133 kunlik orasidagi terisining jun tolasini uzunligidagi farqi 1,92 millimetrdan tashkil etdi. Kunlar orasidagi terilarning jun tolasining uzunligi ehtimollik darajasi $P < 0,01$ dan $P, 0,001$ ga teng bo'ldi.

Sur rangli embrionlar terilardagi jun tolasining uzunligi qora rangli terilar jun tolasidan uzunligiga nisbatan uzun lekin, kunlar orasidagi ko'rsatkichlarni qora rangli terilarni ko'rsatkichlardan farqi borligini ta'kidlashimiz lozim. Bu yerda jun tolasining uzunligi ehtimollik darajasi $P < 0,01$ dan $P, 0,001$ ga teng ekanligi aniqlandi.

Shuni qayd qilib o'tish kerak yakka va egiz bo'lgan embrion terilarda jun tolasining uzunligi bo'yicha farqi uncha katta emas. Masalan, yakka bo'lgan va egiz bo'lgan 129 kunlik embrion terisining jun tolasining uzunligi – millimetrdan, 130 kunlikdagi orasida 0,27 millimetrdan, 131 kunlikdagi 0,16 millimetrdan, 132 – 133 kunlikdagi farqlar 0,08 millimetrdan tashkil qildi. Bulardan ehtimollik darajasi $P < 0,01$ dan $P, 0,001$ ga teng ekanligi aniq bo'ldi. Sur rangli yakka va egizlardagi farqlar xam xuddi qora rangli terilar kabi farq qildi.

Qiziqarli tomoni shundaki, kunlarning ko'payishi bilan yakka va egiz bo'lgan embrionning terisidagi jun tolalari farqi kattayib borganligini kuzatdik.

Jadval mulumotlari shuni ko'rsatib turibdiki qora rangli embrionlarning terisini jun tolasining uzunligi, sur rangli embrionlardagi jun tolasining uzunligidan

ancha qisqa ekanligi malum bo'ldi. Bu farq sur rangdagi oq jun tolalar borligi uchun uzunligi aniqlandi.

Masalan, 129 kunlik qora rangli yakka bo'lgan embrion terisining jun tolasining uzunligi, sur rangliga nisbatan 0,20 millimetrni, egizlarida esa bu farq 0,25 millimetrga teng ekanligi aniqlandi. 130 – 131 kunliklaridagi farq qora rangli terida 4,99 millimetrga teng bo'lgan bo'lsa, sur rangda esa jun tolasining uzunligi 5,28 millimetrga teng bo'ldi.

Egizaklarda esa qorada 4,78 millimetr, kshkda esa 5,13 millimetrni tashkil qildi. 133 kunlikdagi farq qorada 6,03 millimetrga teng bo'lgan bo'lsa, surda 6,40 millimetrga teng bo'ldi. Egizaklar qora ranglisida 5,96 millimetrga teng bo'lgan bo'lsa, surda esa 6,20 millimetrga teng bo'ldi. Ranglar orasidagi ehtimollik darajasi $P < 0,01$ dan $P, 0,001$ ga teng bo'ldi.

Yuqorda o'tkazilgan tajribadan quyidagilarni xulosa qilish mumkun, yoshiga ko'ra yaroqsiz sovliqlarni boqganda asosan yaxshi sharoitdan tashqari, sur rangli sovliqlarni qora rangli qo'chqorlar bilan qochirilsa va ikkinchidan yoshiga ko'ra yaroqsiz sovliqlarni jadal boqishdan tashqari sovliqlarning rangiga qarab aloxida guruxlarni tashkil qilib, sur rangli sovliqlarni so'yishda qora rangli sovliqlarga nisbatan kuni etiborga olingandan tashqari sur sovliqlarni kechqurun so'yiladigan bo'lsa, qora sovliqlarni shu kun ertalab so'yilsa bizningcha sifatli qorako'lcha terilar olishimiz mumkun.

3.6 Xar xil muddatda olingan terilarning tiplari.

Dunyoda birgina qorako'l zotida shunday chiroyli ko'rinish o'zgarishlari bo'ladi. Uning xomilasida 115 kunligidan keyin teri – jun qoplamida birlamchi va ikkilamchi oqish tolalar ko'rinib va qora shaklchalar paydo qila boshlaydi (tangachalar, taramlar, taram oraliqlari).

Bular teri ustida chiroyli muari to'lqin, so'ngra muari rasmini xosil qiladi, yolchalar, yol gulluri va nixoyat qalamgullarga ytadi. Bu ko'rinish xar 3 – 5 kunda

boshqa – boshqa xil bo'ladi. Bu xomilaning qorako'lcha guruxiga kiruvchi terilarda ifodalanadi.

Qorako'l jingalagi va terisi shakllarining xosil bo'lishi masalalari turli mamlakatlar olimlari etiborini yarim asrdan ko'proq muddat davonida o'ziga jalb qilib kelmoqda.

B.N.Vasin (1971) jingalaklar va qorako'l teri xosil bo'lishini birinchi bo'lib izoxlab berishga urinib ko'rishdi. Bu mualluflar qorako'l qo'ylarining 115 kunlik xomilasida jun tolalari va teri qoplami tariflar ekanlar, sag'ri soxasidagi jun "toralgan" ligini, 128 kunlik xomilada esa ancha murakkab naqsh borligini ko'rdilar. Bir xil tarzda joylashgan jun tolalari rangida teskari joylashgan tolalar ko'zga tashlanadi u tolalar farqi deb ataladi. Chiziqli naqshlar xosil qilib, ikki tomonga yoyilib turgan tolalar xuddi taroq bilan tortib ko'rgandek ko'rinadi.

Agar naqsh butun bir yuzaga ko'rinib tursa, "bo'yoqlar" deb ataladi. Bularning vujudga kelishi teridagi bo'rmalar (ajinlar) sabab bo'ladi, deb xisoblanadi, chunki ular jun tolasining o'sishiga to'sqinlik qiladi, natijada u burulib, avval g'oroyib naqsh va undan qeyin jingalak xosil qiladi. 128 kunlik qorako'l embrionida ozmi – ko'pmi naqsh vujudga keladi va "qorako'l" shakllanadi.

S.Yusupov (2002 y) aniqlashicha xomila 60 kunlik bo'lganida uning kallasini qoplab turuvchi teri qoplami ichida fallequlalar vujudga kela boshlar yekan, 100 kunlik bo'lganida esa jun tolalari teri qoplami sirtiga teshib chiqar ekan.

Muallufning fikricha, jingalak xosil bo'lishiga ona va xomila organizimida kechadigan murakkab jarayonlar kompleks sabab bo'lsa karak, ushbu jarayonlar terilarda tolalar yo'nalishini o'zgartirib yuboradi, buni mualluf "oqim" deb atagan.

A.Gaziev (2002 y) turli xil shakilli oqimlarni, chunonchi: "kanvergensiyalovchi va divergensiyalovchi xurpaygan", "kanvergensiyalovchi va divergensiyalovchi tekis" oqimlar farq qilgan va jingalak rivojlanishining dastlabki bosqichida divergensiyalovchi oqimlar jun "tojlarini" ni, kanvergensiyalovchi

oqimlar esa “gajakcha” larni xosil qiladi, deb xisoblagan. Rivojlanishining ikkinchi bosqichida gajakchalarning o’zida boradigan jarayonlar birlashib rivojlana boshlaydi va naychasimon jingalaklar vujudga keladi. Rivojlanishining shundan keyingi bosqichida, deb ko’rsatadi mualluf; chiziqli uzun jingalaklar, qalami gul jingalaklarga, kalta jingalaklar esa loviyasimon jingalaklarga aylanadi. Gajaklar xam shunga o’xshash jingalaklar xosil qilish mumkin. Los junlar jingalak xosil qilishda qatnashmaydi. Uzun jingalaklarga vujudga kelishi uchun zarur bo’lgan asosiy shartlar quyidagilardan iborat: jun tolalari qoplamida chiziqli ravishda va uning satxiga og’ma xolda joylashgan bo’lib, bir qator jun guruxlarida maskur egilganlik xamda qo’shni satxlardagi bir xil yo’nalishda bo’lmagan jun tolalarining o’sishi bir xilda bo’lishi lozim.

A.Kezerol (2002 y) jun tolalarini guruxga ajratadi: “birlamchi” yoki yakka gurux – bu xil tolalar sig’mi bo’lganligi uchun jingalakning asosini tashkil etadi; “ikkilamchi” gurux – bular birinchi guruxga mexanik ravishda ilashuvchi tolalardir. Gul shaklining dastlabki belgilarini mualluf 120 – 125 kunlik xomilada aniqlagan. Bu davrdagi xomilaning terisi “qorako’lcha” teriga kiradi.

Bu fkrLAR keyinchalik bir qator tadqiqotchilar tomonidan tastiqlargin va yanada chuqur o’rganildi.

I.N.Dyachkov, (1980 y) turli yoshdagi qorako’l xomilalarini O’zbekiston sharoitida o’rganib chiqib, shuni aniqladilar. Agar jingalaklarning ochiq tomoni dum tomonga qaragan bo’lsa “birlamchi oqim” tolalari avvalgi xolatini saqlab qoladi. “ikkilamchi oqim” tolalari birlamchilardan kaltaroq bo’ladi. Chunki unda jun follekulalarining vujudga kelishi va rivojlanish muddati 16 – 22 kunni tashkil etadi.

140 – 150 kunlik (yoshga) ga borganda yopiq tipdagi jingalak vujudga keladi. Qoplab turuvchi jun tolalari yopiq doira xosil qiladi va ularning uchlari jingalak ichida qoladi. Bunday teri “qorako’l” teriga kiradi.

X.I.Ukbayev (2004 y) ko’rsatishicha, terining vaskuperizasiyalanishi do’ngcha va egatchalarda jun tolalarining notekis o’sishiga yordam beradi, bu esa jingalak jun tolasi follekulalari rivojlanishining 68 – 70 kunlarida vujudga kelar

yekan va qattiq tolalar 104 kunga, tivit tolalar esa 124 – 127 kunga borib teri qoplami satxiga teshib chiqar ekan. 114 kunga borganda jun tolalari 5 – 6 donadan bo'lib guraxlasha boshlaydi, shundan keyin xomilaning gavdasi jun bilan qoplanib, birlamchi va ikkilamchi oqimdagi jun tolalari vujudga keladi. 125 – 128 kunga borib ikkilamchi oqimlar teri satxining uchdan ikki qismiga tarqaladi. Bunday teri tovar xossalariga ko'ra “go'lak” tipiga kiradi.

130 kunlik bo'lganda ikkilamchi oqimlar terining deyarli butun satxini egallaydi, bu davrda “yol gul” ozmi – ko'pmi ko'zga tashlana boshlaydi. Bu xil terini “go'lak – qorako'lcha” tipiga kiritiladi. 133 – 136 kunlik xomilada “yol gul” yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Jun tolalarining buralgan gullari asosan bosh tomonga yo'nalgan bo'ladi. 139 kunga borganda birlamchi oqim tolalaridan yol gullar va yassi qalamigullar vujudga keladi. Ikkala oqim tolalarining jingalaklanishi bir biriga bog'liq bo'lmagan xolda davom etadi. Bu xil terilar tovar xossasi jixatidan “qorako'lcha” tipiga kiradi. 140 – 142 kunga borganda jun tolalarining egilma yoyi aylananing uchdan bir qismiga yetadi. Bunday tiplar xossasi jixatidan “qorako'l – qorako'lcha” qatoriga kiradi.

I.N.Dyachkov (1982 y) lo'vasimon jingalaklarning rivojlanish basqichlarini tariflar ekan, bunda teri qoplamida egatchalar bo'lishi va topografik jixatdan jingalak shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ikki xil jun tolalar “oqim” xosil bo'lishida katta ro'l o'ynaydi, deb xisoblaydi. Birlamchi va ikkilamchi oqim tolalari bamisoli bosh tomonga, yani o'zlarining dastlabki yo'nalishiga tomon teskari qarab o'grilib qolganday bo'ladi. Shu tariqa ochiq tomon boshiga qarab yo'nalgan jingalaklar vujudga keladi. Ikkilamchi oqim tolalari “qoplama” tolalar bo'lib qoladi, “kiruvchi” jun tolalari o'z yo'nalishini teskari tomonga o'zgartirib, jingalak balandligini xosil qiladi va qorako'l terining shakllanishiga katta tasir ko'rsatadi (do'ngchalarda tez va egatchalarda sekin shakllanadi).

A.P.Vorobyevskiyning (1990 y) yozishicha, rivojlanayotgan xomila teri qoplamining turli qisimlarida bosimning notekis bo'lishi jun tolalari o'qining o'zgarishi uchun shart – sharoit va qorako'l jingalakgi xamda terisi vujudga kelishiga so'zsiz tasir ko'rsatadi.

s.yusupov (2002 y) qo'ylarni boqish va asrash sharoiti tasirida terining sifat o'zgarishi to'g'risidagi materiallariga asoslanib, qorako'l jingalagining bosqichma – bosqich rivojlanishi to'g'risida gipotezani oldinga surdi. Qorako'l jingalaklarining vujudga kelish jarayoni bir xil jingalak formalarining boshqa xil formalar bilan almashinishidan iborat deb xisoblaydi. U jingalaklarning dastlabki formasi yol guldir. Yol gulning jun tolasi eng kalta bo'ladi, keyinchalik, tolalar o'sa borgani sari, bir yol guldan ovval qalam gul xosil bo'ladi, undan kegin yonma – yon joylashgan ikkita jingalak qalam gullar vujudga keladi. Keyinroqqa borib yol gulning o'rta qismida yonma – yon joylashgan ikkita jingalak qalam gul o'rtasidagi "chok" ga aylanadi. Yana keyinroq yarim aylana shakldagi qalam gullar g'ovak govialarga ajraladi va shundan keyin ular o'sib, yarim xalqa shtopor (buralma) va x.k shakilga kiradi. Jingalaklarning bosqichma bosqich rivojlanish nazariyasi ko'pgina muallaflar olib borgan tadqiqodlar natijasidan ziddir.

T.U.Umirzoqov (1989 y), A.N.Vorobyevskiy va boshqalar (1980 y) turli xil qorako'l guruxiga kiruvchi qorako'llar terisi va jun so'g'onining gistologik tuzilishiga teri satxiga chiquvchi tola o'qlarining og'ish burchagida muxim tafovutlar borligini aniqladilar.

Keyinchalik jun tolasining tarkibi bilan jingalakning shakli va tipi o'rtasida bog'lanish borligi aniqlandi. Qoplab turuvchi va teri satxiga chiquvchi jun tolalarining miqdoriy nisbatlari va xossalaridagi, ayniqsa, jun tolalarining tuzilishidagi xar bir jingalak shakli va tipiga xos bo'lgan tafovutlar xayvonlarni uzoq davom etgan suniy tanlash oqibatidadir.

Jun tolalarining ko'ndalang kesmasi oval – loviyasimon shakilda tuzilganligi tola to'qimasining tarkibi va zichligida tafovut borligidan, jingalakdagi xar bir tolaning egilma yoyi ichki va tashqi qavatlar ichiga turlicha kuch bilan chirmashganligidan dalolat beradi. Jingalakning o'ziga xos tuzilishini keltirib chiqaruvchi bunday tuzilish sug'on bo'yni yonida tala o'zi shakillanayotgan va o'sayotgan paytda vujudga keladi. Shuning uchun xam jun tolasi tuzilishining tilga olib o'tilgan xossasi va xususiyatlari teri qavatlari o'rtasidagi bosimning turlicha bo'lishiga bog'liq. Jun so'g'oni turlicha ekanligiga xam xuddi shu turlicha bosim

sabab bo'ladi. Muayyan tarkibga ega bo'lgan jun tolasini teri yuzasiga chiqqanda birlamchi oqimlarni hosil qiladi, tolalar yanada o'sa borgan sayin esa ularning uchlari burilib, ikkilamchi oqimni hosil qiladi, natijada ipakday tovlanishlar, ajoyib shakillar va undan keyin naqishlar paydo bo'ladi, qorako'l terisida do'ngcha va egachalar vujudga keladi, o'sayotgan tolasini orasida esa farqlar ochiladi, tojlar yollar va kalam gulli jingalaklar vujudga keladi.

Terining rivojlanishi va tarkibiga xos xususiyatlar, xususan jun tolalari ildizlari bo'yni burulmasining tuzilishiga xos xususiyatlar qorako'l jingalagiga shakillanishiga olib keluvchi asosiy omildir, zero xo'jaliklarning qattiqqlanishi, o'sayotgan jun tolasini tarkibining shakillanishi xuddi shu birlashmada sodir bo'ladi.

Qorako'l qo'ylari xomilasi terisi rivojlanishining 60 kunligida ularning terisi qalinligi va pishiqligi bilan boshqa zat qo'ylar xomilasining terisidan farq qiladi. 60 – 65 kunda embrionlar terisida jun murtaqlari paydo bo'la boshlaydi. 75 kunga borgan bu murtaqlar teri katlamini ichiga tusha boshlaydi va bunda ular malpigi qatlamidagi ko'payib borayotgan qo'shni xujayiralarni xam o'zi bilan olib kirib, epidermal cho'zilma hosil qiladi, ana shu cho'zilmadan bo'lg'usi jun qini vujudga keladi.

90 kunga borgan jun tola murtagi ostida sertomir so'rg'ichchalar paydo bo'ladi. Ular kuchli darajada oziqlanishi natijasida konusi o'sib ketadi. Tola o'zi o'zining yuqori uchi bilan jun qiniga chiqish uchun o'ziga yo'l ochdi va teri qoplami yuzaga chiqadi. 100 – 115 kunda xomilaning boshi va oyoqlarida qoplama jun o'sib chiqa boshlaydi, keyinchalik gavdasining oldingi qismida qorin va dumg'azasida xam shunday jun o'sa boshlaydi. Embriyon terisining turli qisimlarida jun barobar o'smaydi: dumg'aza va orqa qismida eng sekin, yag'rin va dumida tezroq o'sadi. 100 – 112 kunga borgan jun tolalari deyarli silliq, to'g'ri, jini juda kalta bo'lib, embrion tanasiga zich yopishib turadi, uchlari bosh tomondan dum tomonga yo'nalgan bo'ladi va orqasi bo'ylab yonboshlariga yelpig'ichsimon yoyilib tushadi (birlamchi oqim). Bu davrda ular boshqa qo'y zotlari va xayvon turlari xomilasining terisidan hech qanday farq qilmaydi. Rivojlanishning maskur davridagi xomilalar terisi taqir "gulak" deb baxolanadi.

Xuddi shu muddatlarda rivojlanishda – disproporsiya boshlanganligi kuzatiladi: terining o'sish suratidan o'zib ketadi, shuning uchun embrion terisida burmalar xosil bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda teri tarkibida chukur o'zgarishlar yuz beradi. Teri qatlamlarining rivojlanishi va shakillanishi turlicha boradi. Natijada jun so'g'oni joylashgan turli chukurliklarda turlicha zichlik va turlicha bosim vujudga keladi, xamda so'g'onning og'ish burchagi bilan tana ildizi bo'ynining burilishi burchagi xar xil bo'lib qoladi. Tola so'g'onlarining teri qoplami ichida uning satxiga nisbatan turlicha burchak xosil qilgan xolda chiziqli (bir tekis) joylanish chiziqli ravishda joylashgan jingalaklar vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi.

Teri qoplamida burmalar xosil bo'lishi qatlamlar ichidagi bosimning turlicha bo'lishiga olib keladi va tola ildizi bo'ynining turlicha burchak xosil qilib bukilgan bo'lishiga sababchi bo'ladi. Ushbu xolatlar jun tolalarining o'ziga xos formalogik tuzilishi uchun sharoit yaratadi va bunday tolalar teri satxiga chiqishi bilan ularning uchlari yo'nalishlari o'zgaradi (ikkilamchi oqim), bu esa ipaksimon tavlani vujudga kelishiga, tolalar teridan uzoqlashgan sayin esa – tralmalar (bo'yoqlar va tojlar) xosil bo'lishiga olib keladi.

Brak qilingan qo'ylarni bo'rdoqiga boqish va qorako'lcha olish ishlarini tashkil qilganda, xozirgi vaqtda belgilangan davrda qorako'lcha, qorako'l – qorako'lcha va normal terilar olinadi.

Chunki xo'jalik sharoitida qo'ylar yaxshi boqilganda ularning embrioni tez o'sib, tez rivojlanadi va shuning uchun qorako'l – qorako'lcha olish kamaydi. Shuning uchun biz belgilangan muddatni oldinga siljitib ko'rdik.

Buning natijasi jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki embrionning yoshida farq oz bo'lganligiga qaramasdan (3 – 4 kun) ulardan olingan terining xillarida farq katta. Masalan, 129 kunlik embrionlardan uch xil teri olingan. Bulardan 20,0 foiz taqir, 30,0 foiz qoarko'lcha va 50,0 foiz qorako'l – qorako'lcha. 130 kunligidan xam xuddi shunday narmal qorako'l teri olinmagan. Embrionning 131 kunligidan boshlab narmal qorako'l teri tusha boshlagan. 131

kunligida taqir 20 foizni, qorako'lcha 30,0 foizni, qorako'l – qorako'lcha 40,0 foizni va normal qorako'l teri 10,0 foizni tashkil etdi.

132 kunligidan boshlab qorako'lcha olish kamayib, normal qorako'l teri olish nisbatan ko'payadi.

Bu kunligida qorako'lcha miqdori 50,0 foiz va normal qorako'l teri 6,1 foizni tashkil etadi. 133 kunligida esa qorako'lcha olish yana xam kamayib 43,9 foizni tashkil etib, normal qorako'l teri ko'payadi 8,4 foiz.

9-jadval

Xar xil muddatlarda olingan terilarning tiplari solmog'i (%)

№	Bo'g'ozlik davri (kun)	So'ylangan sovlar soni	Jami olingan embriyon soni	Tariq		qorako'lcha		qorako'l – qorako'lcha		qorako'l	
				soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
1	129	10	13	2	20,0	3	30,0	5	50,0	-	-
2	130	10	13	2	20,0	3	30,0	5	50,0	-	-
3	131	10	13	2	20,0	3	30,0	4	40,0	1	10,0
4	132	10	13	2	20,0	3	30,0	4	40,0	1	10,0
5	133	10	13	2	20,0	3	30,0	4	40,0	1	10,0

Qorako'lcha ishlab chiqarish maqsad bilan qo'ylarni bo'rdoqiga boqishda 129 kunligida 66,6 foiz qorako'lcha olingan bo'lsa, 131 kunligida 59,8 foiz olingan, yani 129 kunligiga nisbatan 6,8 foiz kamaygan, 132 kunligida 50,0 foiz qorako'lcha olingan yoki 129 kunligiga nisbatan 16,6 foiz kamaygan. Bundan xulosa qilish mmkinki Kattaqo'rg'oa qo'ylarini bo'rdoqiga boqish va qorako'lcha ishlab chiqarish shirkat xo'jaligi sharoitida bo'rdoqiga boqish muddatini qisqartirib qo'shimcha ko'p miqdorda qorako'lcha olish mumkin ekan.

3.7 Terilarning navlari.

Gullarining malum shakillariga turlariga, (muari to'liqini va muari rasimlarining) terini ustida joylashishiga, kashtalarning necha foiz tarqalganligiga, jun qoplarning sifatiga qarab, qorako'lcha va qorako'l – qorako'lcha terilarni O'z RST 641 – 95 davlat standarti talablariga muvofiq xar – xil navlarga bo'linadi.

Qorako'l – qorako'lcha terilarning ustida gullari uzun jun tolasi past, qayishqoq qalam va tor yol gullar naqsh bilan aralashgan bo'lib, terining 75 foiz satxida joylashgani II – naviniki esa gullari tor past, qayishqoq va tor yol gullar muari (mavji) naqshlari bilan aralashganligi bo'lib terida 50 foizdan ko'p satxiga tarqalgan bo'ladi. III – naviniki esa gullari tor past, qayishqoq qalami tor yol gullari muari (mavjili) naqsh bilan aralash bo'lib terining 50 foizdan kam satxiga tarqalgan. Qorako'lchaga esa I – navi aniq ko'rinadigan muari (mavji) naqsh, teri satxining 75 foizdan ko'p satxiga tarqalgan, II – naviniki esa aniq ko'rinadigan muari (mavjili) naqsh, teri satxining 50 foizdan ko'p qismiga tarqalgan. III – navi aniq ko'rinadigan muari (mavjili) naqsh, teri satxining 50 foizdan kam qismiga tarqalgan yoki bilinar – bilinmas terining butun satxiga tarqalgan bo'ladi.

Jadval malumotlardan ko'rinib turibdiki embrionning kunlariga qarab teri navlari xam xar xil bo'lar ekan. Masalan, qora rangli bittalik terilarda 129 kunlikda so'yilganda I-nav 23,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 133 kunga kelganida 40 foizga ko'paygan, ko'rinib turibdiki aksincha III-nav terilar esa 133 kunligida kamaygan – 3,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 129 kunligida esa 26,7 foizni tashkil qilgan, shu Ko'rsatkich egiz to'g'ilgan qora rangli terilarda xam bittalikday bo'lgani tastiqlanmaqda.

Terilarning navlari

№	Bo'g'ozlik davri (kun)	Qora													
		Bittalik							Egiz						
		n	I-nav		II-nav		III-nav		n	I-nav		II-nav		III-nav	
			son	%	son	%	son	%		son	%	son	%	son	%
1	129	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
2	130	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
3	131	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
4	132	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
5	133	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0

Sur													
Bittalik							Egiz						
n	I-nav		II-nav		III-nav		n	I-nav		II-nav		III-nav	
	son	%	son	%	son	%		son	%	son	%	son	%
10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0
10	8	80,0	1	10,0	1	10,0	10	8	80,0	1	10,0	1	10,0

Yani 129 kunlikda I-navli terilar 27,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 133 kunligida 38,8 foizga yetgan farqi 4 kunning ichida 11,1 foizni tashkil qilgan. Xuddi shunday tajribani Sur rangli terilarda o'tkazganimizda qora ranglardagi kabi kunlarning ko'payishi bilan terining navi xam yuqori bo'lgan. Egizaklarda esa qorada qanday bo'lgan bo'lsa Sur rangli terilarda xam xuddi shundayligi aniqlandi. Olingan malumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak malum bir davr ichida (kunlar) kunlarining oshib borishi bilan teri sifati yuqori bo'lganligi aniqlandi. Bizningcha malum bir kunlardan tashqari qo'ylarni bo'rdoqiga boqish rasionlariga bog'liq bo'ladigan bo'lsa, ikkinchidan qo'chqorlarning va sovliqlarning nasliga xam bog'liqligini o'z tajribamizda aniqladik.

3.8 ISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Qishloq xo'jaligida ishlab – chiqarish resurslarini takomillashtirish va ulardan samarali foydalanish tufayli erishilgan natijaning shu maqsadlar uchun sarflangan jonli va buyumlashgan mexnat miqdoriga nisbati ishlab – chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ifodalaydi. Lo'nda qilib aytganda, iqtisodiy samaradorlik 1 so'mlik jonli va buyumlashgan mexnat evaziga qancha maxsulot ishlab chiqarilganligiga bilan aniqlanadi. Chunki kishilik jamiyati yashamog'i va rivojlanmog'i uchun doimo moddiy noz – nematlar ishlab chiqarilmog'i lozim. Bu jarayonda moddiy noz – nematlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan bir qatorda maxsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jonli va buyumlashgan mexnat sarfni kamaytirib borishga erishmoq shart.

Xalq xo'jaligi bo'yicha iqtisodiy samaradorlik – bu davlat manfaatini xisobga olgan xolda aniqlanadigan samaradorlikdir.

Xar bir ishning natijasi uning iqtisodiy samaradorligi bilan baxolanadi. Xo'jalikning iqtisodiy samaradorligiga quyidagi omillar tasir qiladi.

1. Mexnatni to'g'ri tashkil qilish.
2. Ishlab – chiqarilayotgan maxsulotlar tannarxi.
3. Maxsulotlarning sotish baxosi.
4. Mexnat unumdargigini oshirish va boshqalar.

Nasilchilik ishlari va mexnat to'g'ri tashkil qilingan xo'jaliklarda ishlab chiqariladigan maxsulotlar sifatining yaxshilanishi bilan xo'jalikning iqtisodiy samaradorligi xam orta boradi.

F.J. Jo'rayevning (1991 y) malumoti bo'yicha qorako'l qo'ylari boshqa zot qo'ylariga nisbatan xo'jaliklarga ko'praq foyda keltirishini aytib o'tgan.

Samaradorlik juda katta tushuncha bo'lib, xar bir bosh mol xisobiga, bir gektar yer xisobiga, bir so'mlik fondlar xisobiga, bir so'mlik xarajatlar xisobiga olinadigan daromad va boshqalar samaradorlik Ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin. Samaradorlikning asosiy yakuniy Ko'rsatkichlaridan biri bu rentabellikdir.

Qorako'lchilikda rentabellik maxsulotga qilingan xarajatni olingan daromad bilan solishtirib ko'rib aniqlanadi. Bu esa yetishtirilgan maxsulotning sifatiga, miqdoriga va turiga qarab va xatto sovliqlarni qaysi davrda so'yilishiga, pushtdorligiga qarab xam foyda yoki zarar qilish mumkin.

Xazirgi kunda xo'jaliklar qorako'l terini xam, go'shtini xam va boshqa maxsulotlarini xam erkin narxda shartnoma asosida sotmoqda.

Maxsulot birligini yetishtirish uchun qancha kam xarajat qilinsa, uning tannarxi shuncha arzon bo'ladi.

Tannarxi deb, maxsulot birligini yetishtirish uchun qilingan xarajatlarni puldagi ifodasiga aytiladi.

Qolako'lchilik maxsulotlari tannarxini pasaytirishning asosiy yo'llarini F.J. Jo'rayevning (1991 y) ko'rsatib bergan edilar. Uning darajasi turli xo'jaliklarda turlicha bo'lishini taxlil qilib berdilar. Lekin xozirgi kunda tannarxi ko'p sabablarga ko'ra oshib ketmoqda, bulardan asosiylari, yem – xashak, yoqilg'i – moylash materiallari, texnika sarflari va xokozolar.

Bizning tajribamizda rentabellik darajasini xisoblaganimizda 129 kunlik bo'g'oz sovliklar syo'lganda go'sht va qorako'lcha teri rentabelligi 32 foizni tashkil qilgan bo'lsa bu Ko'rsatkich 130 kunligida 32,9 foizni, 131 kunligida 34,1 foizni, 132 kunligida esa 34,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 133 kunligiga kelganda esa 32,0 foizni tashkil qilda. Bu esa biz qatcha ko'p sifatli go'sht va qorako'lcha va qorako'l – qorako'lcha terilar oladigan bo'lsak rentabellik darajasi shuncha yuqori bo'lar ekan.

Yuqoridagi Ko'rsatkichlarni inobatga olib tishiga ko'ra brak qilingan sovliqlarni bo'g'zligining 131 – 133 kunligida so'yilsa biz shuncha ko'p foyda olar ekanmiz.

Abay qo'ylarini bo'ldoqiga boqish va qorako'lcha ishlab – chiqarish shirkat xo'jaligi sharoitida bo'g'oz sovliqlarni 131 – 133 kunligida so'yilsa ko'proq samaradorlikka erishiladi.

IV.Bob

4.0 HAYOT FAOLIYATI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

Chorvadorlarni mexnati yengillashtirish va mexnat unumdorligini oshirish uchun ishlab chiqarishda hozirgi zamon mashinalarni qo'llash talab qilinmoqda. Chorvachilikda qishloq xo'jalik maydonlarini sug'orish xashak tayyorlash va taqsimlash, sigirlarni sog'ish, sutini birlamchi ishlash maydonlarga qarash. Qorako'l qo'zilarini terilariga birlamchi ishlov berish kabi ishlarini mexanizatsiyalash kerak.

Buning uchun qulay vaqulunlar uchun qarovsiz texnikani joriy etish kerak. Hozirgi paytda ishchi xo'jalik a'zolari mexnatini muxofaza qilish to'g'risida shu xo'jalik mutaxassis xodimlari instruktaj o'tkazish kerak:

- 1) Texnika xavsizligi bo'yicha kirish instruktaj ishchi, xo'jalik a'zosi va xizmatchilarni birinchi marta ishga qabul qilishda o'tkazilishi kerak. Instruktaj olmagan kishi ishga qabul qilinmasligi kerak. Instruktajda quydagilarga e'tibor berish kerak. Ichki kun tartib, ishlab chiqarish sanitariyasi va texnika xavsizligi instruktaj talablarini bajarish shu kishining burchi ekanligi, xo'jalik teritoriyasi texnika xavsizligiga e'tibor berish masalalarini tushuntirib forma № 1 to'ldiriladi.
- 2) Ishchilarni ferma va birgaliklarga yo'nalsih bir ishdan ikkinchi ishga ko'chirishda shu joyda instruktaj o'tkaziladi. Instruktaj shu bo'limning rahbari, birgadir va ferma muduri tamonidan o'tkazilib, ishning usullari va saqlash moslamalari bilan tanishtiriladi. Bunda texnologik protsesslari ish joyini tanlash, ishchi xizmat qilgan mashinaning tuzulishi, jixozlanish asboblari bilan to'g'ri muomila qilish, ximoya kiyimlarni foydalanish tartiblari to'g'risidagi tushuncha berilib forma № 2 to'ldiriladi.
- 3) Mavsumiy instruktaj 6 oyda bir marta o'tkazilishi Kerak. Instruktajni bosh mutaxassislar tamonidan ferma muduri va brigadirlarning qatnashishi bilan o'tkaziladi va forma № 2 to'ldiriladi. Agar ishchi shuni xafli yo'l bilan

bajarilayotgan bo'lsa rahbar xodimlar bu usulni bekor qilib, qulay usullarni o'rgatadi. Baxtsiz xodisalar ro'y bersa qo'shimcha instruktaj o'tkazilishi shart.

- 4) Kurslarda o'qitish asosan kuzda qish paytlarida o'tkazilib № 3 to'ldiriladi. Elektir uskunalari, yuk ko'tarish mashinalari va boshqa xafliishlarni bajaruvchilarni kurslarda o'qitish kerak
- 5) Salomsishaserska (RSS – 6 RSB – 3 ,5 MCh) bilan Ishlaganda bu mashinani trakterdan 1,5 m uzoqlikda pona va tayanch bilan maxkamlash kerak. Dvigatel bilan qiyovning orasi 5 m bo'lishi kerak. Shlif va remant yon tomonidan va ustidan ximoyalangan bo'lishi zarur. Transportor jilobining chorli venasi ustan tomonidan eni 25 sm dan kam bo'lmagan taxtacha bilan berkitilishi shart. Remen va shikizlar ximoyalangan solingan xashak oyoq bilan ishlanib turgan joylarga yuboriladi. natijada baxtsiz xodisaga olib kelish mumkin.
- 6) Jun qirqish agregati esa 12 – 16 bilan yer o'rtasida izola qilish kerak, va agregatning tagi bor qisimlarga tekmaydigan bo'lishi kerak. Qo'shimcha Elektra stansiya bo'lsha punkitdan 15 m uzoqlikda bo'lishi kerak. Bizning xo'jalikda talablarga javob bermaydigan xolda ish bajariladi. Qirqimchilar yog'och stolida emas sment ustida ishlaydilar instruktaj o'tkazilmaydi.
- 7) Sog'ish agrikatida (DA. 3m, Dpr – 2 a) ishlaganda vakumnasos elektra dvigital va taqsimlovchi shit aloxida yorug' xonalarga o'rnatilgan bo'lishi shart. Bularning xammasi ximoyalangan bo'lishi shart.

Trubaprovod bilan elektraprovot oralig'I 40 sm dan kam bo'lmasligi kerak qorako'l qo'zilarni so'yish punkitida ham mexnatni muxofaza qilishiga katta e'tibor berish kerak.

Yaylov bu xayvonlar uchun oziqa xisoblangan xilma – xil o'simliklar ta'biy xolda o'suvchi territoriyadir. O'tloqlar xayvonlar uchun oziqa manbayidir. Qishga ham yem – xashak g'amlab qo'yiladi. Yer sharida yaylov va o'tloqlar ko'proq tunda, o'rmon (xosildorligi iqboliga 70,5 s). O'rmon dasht (10,3 s), dasht (6,3 s), chala

cho'l zonalarda (2,2 – 4,4 s) savonalarda va tog'li tumanlarda tarqalgan. Yer sharida o'tloq va yaylovlar ko'proq Afrikada (822 mln ga), Amerikada (775 mln ga) joylashgan. Chunki bu materiklarda dasht, o'rmon dasht vaancha katta teritoriyani o'rab olgan.

Yaylov va pichan zorlardan ba'zan noto'g'ri foydalanish natijasida sifati pasayib bormoqda. Chunki ba'zi xo'jaliklarda mollarni yaylov qonun qoidalariga rioya qilmasdan muttasil bir teritoriyada aylantirib boqilganligi sababli uning xosildorligi kamayib ketmoqda.

O'rta osiyo cho'llarida esa ba'zan mollarni muttasil birjoyda boqish tufayli kimlar ko'chib xarakatiga kelmoqda. Shuningdek tog' yon bag'irlarida yaylovdan noto'g'ri foydalanish natijasida ko'proq eroziyasi sodir bo'lib uning xosildorligi pasayib ketmoqda. O'tloqzorlarni muxofaza qilsih va xosildorligini oshirish uchun uni ba'zi begona o'tlardan butalardan, toshlardan, tozalash, tuproqning suv rejimini tartibga solish. Zararli o'tlarga qarshi kurashish, organic va mineral o'g'itlar solish. Bir joyda ko'p mollarni boqmaslik, yon bag'irlari tik bo'lgan joylarda iloji boricha yirik shoxli mollarni kam boqish, o'ti siyrak koylarda va qum tez xarakatga keluvchi joylarda mol boqishni tartibga solish zarur.

4.1 XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Tajriba patijasida olingan materiallar asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. yoshi bo'yicha yaroqsiz qilingan sovliqdar qorakshlcha olish maqsadida jadal saratda bo'rdoqiga boqilsa ulardan ko'p miqdorda yuqori sifatli qorako'lcha teridan tashqari go'sht xam olish mumkin ekan, ularni tana og'irligi 56,5 foizga bqori bo'ldi.
2. bo'g'ozlik davrida farq uncha katta bo'lmaganligi bilan (3 – 4 kun) embrionlarning og'irligidagi farq ko'rinarli ravishda bo'ladi, embrionlarning og'irligiga extimollik $P < 0,01$ dan $P < 0,001$ teng bo'ldi.
3. bo'g'ozlik davrining oshib borishi bilan bittilik va egizlarning orasidagi farq kunlar o'tishi bilan farqi kamayib bordi, embrionlarning og'irligiga extimollik $P < 0,05$ dan $P < 0,01$ teng bo'ldi.

4. bo'g'ozlik davri ko'payib borishi bilan embrion terisini og'irligidagi farq xam ko'zga ko'rinarli, $P < 0,01$ dan $P < 0,001$ teng bo'lib, teri kundan kunga og'irlasha borib kunlik o'sish 35 grammni tashkil qiladi.
5. embrion egiz bo'ladigan bo'lsa terisining og'irligi bittalikga nisbatan kam bo'lar ekan.
6. terining og'irligi terilarning rangiga xam bo'g'liq bo'lar ekan. Masalan, Sur rangli terilar, qora rangli terilarga nisbatan og'ir bo'lar ekan, buni biz Sur terilarni bo'sh bo'ltshligi dab o'ylaymiz.
7. bo'g'ozlik davri terilarning satx o'lchamiga uncha tasir qilmas ekan, ularning orasidagi farq deyarli yo'q.
8. bo'g'ozlikning 129 – 130 kunlarida 3 xil tipdagi teri olingan, tariq, qorako'lcha, qorako'l – qorako'lcha, 131 kunligida esa yuqoridagi terilardan tashqari narmal qorako'l terisi xam olingan.
9. bo'rdoqiga boqilgan qo'ylardan olingan qorako'lcha terilarning bo'rdoqiga boqilmagan qo'ylardan olingan qorako'lcha terilariga nisbatan satx o'lchami 12,5 foizdan 13,1 foizgacha yuqori bo'lgan.
10. bo'rdoqiga boqilmagan qo'ylardan olingan qorako'lcha terilarning og'irligiga nisbatan o'rtacha 12,4 foiz yuqori bo'ldi.
11. bo'g'oz sovliqlarni bo'g'ozlik davrining 131 – 133 kunligida so'yilsa ulardan ancha ko'p daromad olar ekanmiz.

ISHLAB CHIQRISHGA AMALIY TAKLIF VA TAFSIYALAR

1. Ustyurt maxsus qorako'l olish bo'limi sharoitida bo'rdoqiga boqishda qo'ylarni rangiga qarab guruxlar tashkil qilish kerak. Bunda ko'p ranli sovliqlarga yaxshi shariot to'g'irib beriladi.
2. Ustyurt maxsus qorako'l olish bo'limi sharoitida bo'g'oz sovliqlarni 131 – 133 kunligida so'yilsa ulardan ko'proq qorako'lcha va qorako'l – qorako'lcha teri olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A Andijon viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi. Xalq so'zi gazetasi, 2013 – yil 26 – aprel.
2. Karimov I.A Chorachilikni rivojlantirish bo'yicha Prezident qarori. Xalq so'zi gazetasi, 2008 yil 22 aprel.
3. Karimov I.A Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash- barcha isloxat va o'zgarishlarning bosh maqsadi. Turkiston gazetasi 9.02.08 yil.
4. Karimov I.A “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda” , Toshkent 1999 y.
5. Asamov S.A., Stepanov B.M., Iskandarov M.A “Polucheniye baranini i karakulchi na promishlennoy osnova” . Tashkent “Mexnat” 1988 g. S.80-150.
6. Babayev M.N “Ob otkorm oves xlopkovim jmixom i sheluxoy”. -Tr. Turkmenskogo selxoz instituta. M.I.Kalinina Izdat. TSXI. 1976g. t.VIII, s.229-231.
7. Boyko D.F “Proizvodstvo baranini i karakulchi pri otkorme oves na promishlennoy osnove”. Moskva “Kolos” 1974 g.
8. Valiyev R.G “Znachenije formi i tipa zavitkov v seleksii karakulskix oves”. Texnologiya proizvodstva produkcii karakulivodstva. Moskva “Kolos”. 1994 g. S. 11-16.
9. Vorobyovskiy A.P. “Nekotoriye voprosi mexanizma izmineniya i razvitiya karakulskix zavitkov”. V. kan-ya Materiali konferensii molodix uchyonix po selskomu xozyaystvu Uzbekistana-Tashkent. “Fan” 1990 g. S. 3-6.
10. Daminov R.A., Shmanov V.G., Malishev P.P., Dergach A.K “Karakulchu mojno poluchat v bolshom kolichestve ot vibraovannix motok” Ovsevodstvo. 1963 g. №10
11. Dyachkov I.N., Zokirov M.D., Pismennaya R.T “Metodika izucheniya kachestva karakulya”. -Trudi VNIK . Samarkand. 1963 g. T. 13. S.105-119.

12. Dyachkov I.N “Dlina volosa karakulskix yagnyat-vajniy priznak v selekcionnoy rabote”. –Trudi VNIIC . Samarkand. 1980 g. T. 13. S.175-179.
13. Yelemesov K.Ye., Zokirov M.D., Ombayev A “Texnologiya proizvodstva karakulchi i baranini (Monografiya) ”. Alma-ata , “Kaynar” 2001 g. s.60-96-184.
14. Jurayev F.J “Razvitiye karakulyevodstva Uzbekistana novix usloviyax xozayaystvovaniya”.-Tashkent “Mexnat”1999g.72-92str.
15. Zokirov M.D., Atamuradov K.A., Xaydarov Ya.X “Xayvonlar xom-ashyo tovarshunosligi”. Toshkent 1999 y. 89-93 bet.
16. Kariboyev K.V “O’zbekistonda dag’al yem-xashak tayorlashning progressiv usullari”. Toshkent 1979 y. S.70-80.
17. Kedrova S.I “Kormleniyei soderjaniyekarakulskix oves”. M. “Kolos” 1976g
18. Kiyotkin P.F “Izucheniye myasnoy produktivnostkarakulskix oves pri ix otkorme na xlopchatnikovix kormax”. Tashkent 1969 g.
19. Mamatkazin X.X “Effektivnost intevsivnogo otkorma vibrakovannix karakulskix oves”. Ovsevodstvo , 2000 g. №11.
20. Mamatkazin X.X., Ombayev A., Tanabayev K “Osnovi promishlennogo proizvodstva karakulchi”. Selskoye xozyaystvo Kzaxstane (na kazaxskom yazike) Alma-ata, 2001 g. №7. S. 32-33.
21. Mamatkazin X.X “Nekotoriye voprosi proizvodstva i issledovaniye karakultchi v Kazaxstane”. Moskva “Kolos” 1974g. S. 90-170.
22. Matter X.E “Dlina volosa – yeyo vliyaniya na volosyanoy pokrov karakulskix Yagnyat v vozraste odni sutok”. –Doklad na mejdunarodnom simpouzime po karakulyevodstvu. Vena.1988g. s. 11.
23. Merkuryeva Ye.K “Biometriya v seleksii i genetiki selsko xozyaystvennix jivotnix”.-M. “Kolos”. 1970g. S. 432.

24. Ombayev A.M., Ukbayev X.I., Risimbatov T.K., “Otkorm vibrakovannix ovsemotok i proizvodstvo karakulchi na promishlennoy osnove”. Rekomendatsii Alma-ata, “Kaynar”. 2003 g. s. 16.
25. Ombayev A.M., Mominov X. “Tovarno texnologicheskiye svoystva shkurok karakulchi , poluchennix pri zaboye starovozrastnix ovsematok”- Aktualnogo voprosi karakulsvodstva. Alma-ata, “Kaynar”. 2004 g. t.9s.147-152.
26. “Oshlanmagan barra Qorako’l terilar”-O’zbekiston Respublikasi davlat standarti RST 641-95. Toshkent-1996y. 30 bet.
27. Raximov A.A., Nasirov Yu.N., Turdiyev A.T., “Rezervi uvelicheniya proizvodstva karakulii” Ovsevodstva 1964 g. №4. s.4-6.
28. Raximov A.A. “Proizvodstva karakulya i karakulchi na promishlennoy osnova ”. Tez. Dokl. XXXII nauchn. Konf-Samarkand, 1972 g. III. S.80-86.
29. Shimanov V.G., Malishev P.P., Muratov I.I “Karakulchi i yeyo polucheniye”. Tashkent “Fan”. 1967 g. s. 70-95, s. 118.
30. Shimanov V.G., Rizayev X., Asomov X “Puti povqsheniya plodovitosti karakulskix oves” Ovesvodstvo 1982 g. s. 34-35.
31. Yusupov S.Yu., Ro’zimurodov R.X “Qorako’lchilikda mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasi” Samarqand. 1995 y . 80-95 bet. 178 bet.